

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI
VAZIRLIGI**

**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

FILOLOGIYA FAKULTETI

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

5141100 - o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr

ta’lim yo‘nalishi bitiruvchisi

BAG‘IBEKOVA MEHRIBON TURSUNBOEVNAning

**«TA’LIM BOSHQA TILDA OLIB BORILADIGAN MAKTABLARNING
5-SINFLARIDA O‘ZBEK TILINI O‘QITISH METODLARI»**

MAVZUIDAGI

BITIRUV- MALAKAVIY ISHI

Nukus-2013 yil

Malakaviy bitiruv ishi O`zbek tilshunosligi kafedrası yig`ilishining 2013-yil « __ »
_____dagi № _____ bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilindi.

Fakultet dekani:	f.f.n., dots. G.Qurboniyozov
Kafedra mudiri:	f.f.n. SH. Abdullayev
Ilmiy rahbar:	p.f.n. SH. Bo`ranova

Bag`ibekova Mehribonning «Ta`lim boshqa tilda olib boriladigan maktablarning 5-sinflarida o`zbek tilini o`qitish metodlari» mavzuidagi malakaviy-bitiruv ishiga Davlat attestatsiya komissiyasining qarori bilan «___» ball (___%) («__») bahosi qo`yilsin.

«___»_____2013 yil

DAK raisi:

DAK raisi o`ribosari:

**Mavzu: «TA'LIM BOSHQA TILDA OLIB BORILADIGAN
MAKTABLARNING 5-SINFLARIDA O'ZBEK TILINI O'QITISH
METODLARI»**

REJA:

KIRISH

1. O'zbek tili o'qitishning huquqiy-dasturiy asoslari
2. Davlat tilini o'qitish tarixidan ma'lumot

**I BOB TURKIYZABON SINFLARDA O'ZBEK TILINI
O'QITISHDA E'TIBORTALAB MASALALAR**

1. O'zbek tili-turkiy tillarning biri
2. 5-sinf yangi dasturining material hajmi va didaktik talablari

**II BOB TA'LIM BOSHQA TILDA OLIB BORILADIGAN
MAKTABLARDA O'ZBEK TILINI SAMARALI O'QITISHNING ASOSIY
YO'NALISHLARI**

1. O'zbek tilini o'qitish usullari va tamoyillari
2. «O'zbek tili» o'quv fanining samaradorligini ta'minlovchi omillar

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

K I R I S H

O'zbek tili o'qitishning huquqiy-dasturiy asoslari

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dastruri"da Respublikadagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'zbek tilini ikkinchi til (davlat tili) sifatida o'qitishni yanada takomillashtirish ko'zda tutilgan. Davlat ahamiyatiga molik bo'lgan mazkur masalaning o'qitilishini takomillashtirish o'ziga xos dolzarb ahamiyatga egadir. Ikkinchi til vakillariga "O'zbek tili" (Davlat tili)ni o'qitishdan ko'zlanadigan maqsad faqat shu tilning til hodisalarini o'zlashtirish grammatik bilim berish bilan cheklanib qolmasdan o'quvchida o'zbekcha nutq madaniyatini shakllantirishni, ijodiy nutq malakalarini takomillashtirishdan iboratdir. Bitiruv malakaviy ishimizning dolzarbligi ham Davlat tilini o'qitishdan ko'zlanadigan bosh maqsadlardan kelib chiqqan holda belgilangan. **Mavzuning dolzarbligi** ana shu dolzarb vazifalar bilan belgilanadi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari: Tadqiqotimizdan ko'zlangan bosh maqsad ta'lim boshqa tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini o'qitishda o'quvchilarning o'zbekcha nutqini o'stirishga qaratilgan lisoniy-didaktik omillarning samarali metod, vosita va usullarni tadqiq etishdan iboratdir.

Malakaviy ishning obekti va predmeti: Bitiruv malakaviy ishimizning obekti ta'lim boshqa tilida olib boriladigan maktablarning 5-sinflarida o'zbek tili o'quv fanining tashkil etishdan iboratdir.

Tadqiqot uslublari va usulbiyati: Tadqiqotimiz usulubiyati ilg'or tajribalarni o'rganish asosida o'quvchilarning ijodiy nutqini, tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan rang barang o'quv topshiriqlarida ko'rinadi

Tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan yangilik darajasi Tadqiqotimizning yangiligi ta'lim boshqa tilda olib boriladigan maktablarda til o'rgatish jarayonida ustuvor bo'lgan grammatizmdan voz kechilib, kommunikativ usulda funktsional-semantik printsip avzalliklarining bayoni shuningdek, malakaviy ishimizda o'zbek tilini o'qitishda o'quvchilarning o'zbekcha nutqiy malakalarini shakllantirish bo'yicha ishlab chiqilgan metod, vosita va usullar hamda tavsiyalarimiz ishning muayyan darajadagi ilmiy-metodik yangiligi sanaladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va tadbiqu: Tadqiqot natijalaridan bakalavr talabalar ona tili o'qitish metodikasi darslarida amaliy material sifatida, shuningdek, pedagogik amaliyot davomida qo'llanma sifatida foydalanishlari mumkin.

Muammoning ilk echimi sifatida O'z Res XTV tomonidan tasdiqlangan «Ta'lim o'zbek tilida olib borilmaydigan sinf (guruh)larda o'zbek tili va adabiyotini o'qitish kontseptsiyasi nashr qilindi. (Toshkent, RO'MM, 1994) SHu asosda 1994 yilda ikkinchi tilni o'rgatishning yangi dasturi yaratildi. U 1995 yil 10 iyulda tasdiqlandi, 1996 yil nashr qilindi.¹ Dastur taqozosida o'zbek tili 2-3-sinflarda haftasiga 3 soatdan, jami 103 soat, 4-11-sinflarda 105 soat hajmida o'qitiladigan bo'ladi. Bu 90-yillar ikkinchi tilni o'rgatish metodikasida alohida yangilik edi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi XTVning 1996 yil avgustdagi 41-son buyrug'iga binoan 1996-1997-o'quv yilidan boshlab Qoraqalpog'istonda ta'lim o'zbek tilida olib borilmaydigan maktablarning 2-11 sinflarida o'zbek tili asosiy fan sifatida haftasiga 2 soatdan 68-70 soat hajmida o'qitiladigan bo'ldi.

Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi XTV ning 1990-1991-o'quv yilidan boshlab ta'lim o'zbek tilida olib borilmaydigan sinflarda o'zbek tilini asosiy fanlarning biri sifatida o'qitish to'g'risidagi qarori mazmuniga to'la mos keladi. Chunki o'sha qarorga ko'ra qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq va turkman sinflarida (V-IX) haftasiga ikki soatdan 70-soatlik o'zbek tili darslari kiritildi.

Bu birinchi galda boshlang'ich ta'limning 2-4-sinflarida umumiy o'rta ta'limning tayanch sinflari (5-9-sinflar) uchun rusiyzabon sinflar darsliklaridan tubdan farq qiladigan turkiyzabon sinflarga mo'ljallangan «O'zbek tili» o'quv fanidan darsliklar yaratish muammosini kun tartibiga qo'ydi. Ayni muammoning echimi sifatida pedagogika fanlari doktori prof.A.Q.G'ulomov rahbarligida mualliflar guruhi 1998-1999-o'quv yilida ayrim darsliklarni tajriba-sinovdan o'tkazdilar. Nihoyat, tajriba-sinov natijalari bilan ma'qullangan ta'lim qoraqalpoq

¹ Umumta'lim maktablari dasturi. Ta'lim o'zbek tilida olib borilmaydigan maktablarning 2-11 sinflari uchun. Toshkent, 1996 y. Tuzuvchilar: R.Tolipova, A.Rafiev va boshqalar.

tilida olib boriladigan maktablar uchun QQ Res XTV tomonidan tasdiqlangan dastlabki darsliklar amaliyotga joriy qilindi.²

1996 yil nashr qilingan R.Tolipovalar tomonidan tuzilgan dastur asosida boshlang'ich ta'lim va tayanch sinflarda o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishning dolzarb masalalariga bag'ishlangan, til o'qitishning funktsional-semantik tamoyillari sharhlangan usuliy tavsiyalar qayd qilingan metodik qo'llanma o'qituvchilar amaliyotiga havola qilindi.³

SHubhasiz, mazkur darsliklar 2000-2005-yillar ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini o'qitishning ta'lim vositasiga bo'lgan zaruriyatu ehtiyojlarni muayyan darajada qanoatlantirib keldi. Ular rusiyzabon sinflarda o'zbek tilini o'qitishning funktsional-semantik printsiptan farqli o'laroq grammatik bilimlarni amaliy o'rgatishga yo'naltiruvchi didaktik tamoyil taqozosida tuzilgan edi. Ta'kidlash joizki, eslatilgan ta'lim vositalari 2004-2005 o'quv yiligacha amaliyotda ijobiy baholanib, asosiy ta'lim vositasi-darslik sifatida muvaffaqiyatli qo'llanilib keldi.

2. Davlat tilini o'qitish tarixidan ma'lumot

«2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi»ning ijrosini ta'minlash maqsadida «O'zbek tili» fanidan yangi tahriridagi DTS va modernizatsiya qilingan o'quv dasturlari bo'yicha tajriba-sinov ishlari olib borildi. 2005-2006 o'quv yilida 1-9-sinflardagi sinov natijasida yaratilgan yangi darsliklarni saralab olish to'g'risida O'Z Res VM ning 2004-yil 25-noyabrda 548-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomga muvofiq darsliklardan tanlovida g'olib deb topilgan yangi darsliklar amaliyotga taqdim etildi. Masalan, «O'zbek tili» fanidan 8-sinf uchun N.Muhiddinova rahbarligidagi mualliflar, 9-sinf uchun A.Rafiev rahbarligidagi mualliflar guruhi tomonidan tayyorlangan darsliklar.

Natijada quyidagi darsliklar o'quvchining bilim olish manbasi vazifasini bajaradigan bo'ldi.

² Ernazarova., A.G'ulomov, A.Matmuratov. O'zbek tili 4-sinf uchun sinov darsligi. Nukus, «Bilim», 2000 yil. «G'ulom, M.Bo'ranov, Z.Ibrohimova. O'zbek tili. 6-sinf uchun sinov darsligi. Nukus, «Bilim», 2000 yil. A.G'ulomov, M.Bo'ranov, R.Yo'ldoshev, O'zbek tili, 7-sinf uchun darslik. Nukus, «Bilim», 2002 yil. A.G'ulomov, M.Bo'ranov. O'zbek tili 6-sinf uchun darslik. II nashr. Nukus, «Bilim», 2003 yil. A.G'ulomov, A.Madaminov, G.Masharipova. O'zbek tili 8-sinf uchun darslik. Nukus, «Bilim», 2004 yil.

«2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi»ning ijrosini ta'minlash maqsadida O'zRes XTV tomonidan qator tadbirlar amalga oshirildi. Vazirlikning 2005 yil 25 maydagi «Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining ta'lim tayyorgarligi reytingi to'g'risida»gi 130-sonli buyrug'i bilan Nizom tasdiqlandi, amaliyotga kiritildi. 2006-yil 10-iyundagi 152-sonli buyrug'i bilan bu Nizomning yangi tahriri tasdiqlandi, unga Davlat Test Markazi bergan takliflar hamda tajriba-sinov natijalari asosida ayrim o'zgarishlar kiritilgan.

Mazkur hujjatlar asosida umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarining ta'lim tayyorgarligi darajasi reyting usulida baholanadigan bo'ldi.

Maktab amaliyoti nuqtai nazaridan usuliy-didaktik jihatdan diqqatga sazovori shundaki, takomillashtirilgan DTS va u asosdagi o'quv dasturida belgilangan barcha mavzularni qanday o'qitish, nimalarga o'rgatish bo'yicha o'quvchilaning o'quv choraklari davomida o'zlashtirishlari lozim bo'lgan bilim, qo'nikma va malaka (BKM) elementlarini o'z ichiga olgan majburiy standart nazorat ishlari utkazish yuzasidan usuliy tavsiyalar 2006-2007 o'quv yilidan e'tiboron maktab amaliyotiga joriy qilindi.⁴

Eslatilgan dasturlarning usuliy-didaktik qulayliklari, avvalo, dastur materiallarining o'quv rejalari qayd qilingan 68-70 soati hajman aniq taqsimlanishida namaoyon bo'ladi. Qolaversa, mazkur, usuliy tavsiya «O'zbek tili» o'quv fanidan dars beruvchi o'qituvchilar uchun yillik mavzuviy-taqvim reja vazifasini bajaradi. Zero, unda har bir chorak haftasiga 2 soatdan mavzuviy taxminiy rejalashtirish qayd qilinib, dars 5-9-sinflarning har birida o'quv yilining I-choragida mashg'ulotlar haftasiga 2 soatdan 18 soatga rejalashtirilgan (Qarang. 5-7-sinflar uchun MSNI. 12,30,49 betlar, 8-9-sinflar uchun MSNI, 10, 30-betlar).

Yana bir didaktik qulaylik shundaki, mazkur rejalashtirish, ya'ni nechanchi darsda qanday majburiy nazorat ishini o'tkazish shakligacha ko'rsatilganligidadir. Fikrimizcha, bu eng muhim didaktik qulaylik bo'lib, o'qituvchi uchun uni alohida

³ M.Bo'ranov. O'zbek tili o'qitishning ba'zi masalalari. Nukus, «Bilim», 1998 yil.

⁴ 5-7-sinflar uchun «O'zbek tili» O'quv fanidan majburiy (standart nazorat ishlarini (MSNI) o'tkazish yuzasidan tavsiyalar. Tuzuvchi: D.N u r i d d i n o v a **RTM** bosh metodisti, Toshkent, 2006 yil. 8-9-sinflar uchun «O'zbek tili» o'quv fanidan majburiy standart (MSNI) nazorat ishlarini o'tkazish yuzasidan tavsiyalar. Tuzuvchilar: D.N u r i d d i n o v a, **RTM** bosh metodisti. Toshkent, 2006 yil.

tayyorgarlik bilan yuksak saviyada o'tkazishni taqozo qiladi. Masalan, 5-sinf I choragidagi darslarning sakkizinchisida uni matn yaratish shaklida, o'tkazish; 6-sinf birinchi chorakdagi darsliklarning 9-da matn yaratish, 17-da test-sinov usulida o'tkazish qayd qilingan.

Ta'kidlangan umumiy-didaktik qulayliklar, o'z navbatida, o'qituvchilar uchun quyidagi majburiyatlarni talab darajasida bajarishni taqozo qiladi.

1. O'quvchi faolligini oshirish maqsadida, uning bilimidagi bo'shlikni to'ldirishni nazarda tutuvchi joriy nazoratni-kundalik so'rovni me'yorida o'tkaza borish: I chorakda kamida 6 marotaba o'tkaziladi.
2. O'quvchilarning barchasi uchun reyting doirasida majburiy bo'lmagan ijodiy faollik nazoratini o'tkazish. U to'la bajarilgan bo'lsa, «5» ball, kamchiliklari bo'lsa, «4» ball bilan baholanadi.

Ayonkim, nazoratning bu turi, iqtidorli o'quvchilarni, zukkolarni tarbiyalashning muhim didaktik omilidir.

Nazoratning eslatilgan yuqoridagi turlaridan: bosqichli nazorat sinfdan-sinfga o'tish davrida, yakuniy nazorat esa umumta'lim maktablarini bitirish imtixonlari tarzida o'tkaziladi.

Takomillashtirilgan DTS asosida tuzilgan yangi dastur taqozosida o'zbek tilini o'qitishda, shubhasiz, ilmiylik, izchillik, til sathlari yuzasidan beriladigan bilimlar uzviyligi singari didaktik printsiplariga amal qilinadi. Lekin yangi dasturda til o'qitish grammatik tamoyilda emas, amaliy-ma'naviy tamoyil (funktional-semantik) da olib boriladi. Bu printsipning asosiy maqsadi o'quvchilarda nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishdir. SHu maqsadda «Dastur 5-9-sinf o'quvchilarida nutqiy ko'nikmalarni hosil qilishga mo'ljallangan bo'lib, (o'zbek adabiyoti materiallari ham bu sinflarda nutq o'stirish vositasi sifatida xizmat qiladi). Lisoniy bilimlar o'zbek tilining lisoniy tizimi, ya'ni til sathlari bo'yicha emas, nutqiy vazifani echish-nutqiy ehtiyoj zaruriyatidan kelib chiqqan holda kompleks ravishda berilgan. SHuning uchun har bir mavzu bo'yicha ham fonetik, ham leksik, ham grammatik (morfologiya va sintaktik) bilimlar berish hamda shu

bilimlar asosida o'quvchilarni tinglab tushunish, so'zlash, o'qish va yozishga o'rgatish ko'zda tutilgan»⁵

Demak, til sathlaridan kompleks bilimlar berish bilan tinglab tushunish, so'zlash, o'qish va yozishga o'rgatish funktsional-semantik printsiptda tuzilgan, O'zbekistonda endigina amaliyotga kirib kelayotgan yangi dasturning asosiy didaktik maqsadi hisoblanadi. Biroq turkiyzabon sinflarda o'qituvchi sub'ektning aqliy faoliyati uchun ularga eng zarur grammatik bilimlarni amaliy bera borishni aslo unutmasligi lozim.

Xullas, istiqlool sharofati yillarida O'zbekistonda turkiyzabon maktab o'quvchilarining ham o'zbek tilini haftasiga 2 soatdan asosiy fanlarning biri sifatida o'rganish Qomusimizning 4-moddasida «O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir», degan ta'kidning ijtimoiy hayotning turli sohalarida, jumladan, ta'limdagi isbotidir.

Turkiyzabon sinflarda o'zbek tilini Davlat tili sifatida o'qitish nisbatan uzoq tarixga ega bo'lmasa-da, o'tgan 10-18 yil maboynida DTS ni ishlab chiqish, darsliklar yaratish masalasida sezilarli muvaffaqiyatlarga erishiladi. Xususan, 2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi»ning ijrosini ta'minlash uchun, «o'zbek tili» fanidan yangi tahrirdagi DTS, dastur, darsliklar yaratilib, 2006-2007 o'quv yilidan amaliyotga joriy qilinishi umumta'limdagi katta yutuqlarning biridir.

Bular sirasida ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan umumta'lim maktablarning 5-9-sinflarida uchun «O'zbek tili» o'quv fanidan majburiy standart nazorat ishlarini o'tkazish yuzasidan maxsus tavsiyalar nashr qilinishi va maktab amaliyotiga joriy qilinishi, o'quvchi bilimni reyting tizimida baholashda ancha usuliy-didaktik qulaylik bo'ldi, o'z navbatida bular o'qituvchilar mas'uliyatini kuchaytiruvchi majburiyatlar ham paydo qildi.

«2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi»ning qabul qilinishi O'zbekiston Respublikasining ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarida «Davlat tili» o'quv fanini o'rgatish metodikasi

⁵ 5-7 sinflar uchun dastur, MSNI. 6-bet.

sohasida ham qator usuliy-didaktik yangiliklarning amaliyotiga joriy qilinishiga sababchi omil bo'ldi.

Bulardan biri ikkinchi tilni funktsional-semantik printsipta o'rgatishni taqozo qiluvchi hujjatlar: takomillashtirilgan DTS, dastur va ular asosidagi yangi darsliklarning 2005-o'quv yilidan amaliyotga joriy qilinishidir.

Ikkinchisi, O'zbekiston Respublikasi XTV ning 2006 yil 10 iyun 152-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «UO'T maktablari o'quvchilarining ta'lim tayyorgarligi darajasi reytingi to'g'risida»gi Nizomi taqozosida «O'zbek tili» o'quv fanidan majburiy standart nazorat ishlarining 2006 o'quv yilidan maktab amaliyotiga joriy qilinishidir.

Ta'kidlanganlar asosida **tadqiqot ob'ekti** sifatida tanlangan mavzu usuliy-didaktik yo'nalishda shu kunning dolzarb muammolaridan biridir. Chunki hozirgi kunda amaldagi dasturlardan tubdan farqli. U grammatik tamoyilda emas, Respublikamizda endi joriy etilayotgan, ammo chet ellarda ko'p yillardan beri keng miqyosda qo'llanilib kelayotgan, o'quvchilarda asosan nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan funktsional-semantik tamoyilga asoslangan.

O'sha muammo tavsifu tahliliga bag'ishlangan bu ish pedagogik yo'nalishda bo'lg'usi filolog o'qituvchilar uchun ikkinchi tilni o'rgatish darslari tafsiloti, metodikasi bo'yicha namuna bo'la olishi jihatlari **bilan amaliy-usuliy ahamiyatga** ega.

Ayni muammoga bag'ishlangan «**Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 5-sinfida o'zbek tilini o'qitish metodlari**» mavzusidagi mazkur malakaviy ish tirkibon «Kirish», «Asoslama» va ikki bobdan iborat.

Ishning «**Kirish**» qismida ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini o'qitishning huquqiy asoslari ko'rsatildi. O'zbek tili o'qitishning tarixidan qisqacha ma'lumot berildi. Nihoyat, hozirgi kunda o'qituvchilar uchun bu tilni o'qitishdagi qulayliklar, majburiyatlar tavsiflandi.

«Turkiyzabon sinflarda o'zbek tilini o'qitishda e'tibortalab masalalalar» deya nomlangan birinchi bobda o'zbek tili-turkiy tillarning biri ekanligidan qoraqalpoq, qozoq, turkman tillariaro mushtaraklik va o'ziga xosliklar haqida ba'zi

ma'lumotlar berildi. Shu bobning ikkinchi paragrafida yangi dasturning material hajmi va didaktik talablari xususida usuliy tavsiyalar bayon qilindi.

Ishning ikkinchi bobi “Ta’lim doshqa tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini samarali o'qitishning asosiy yo'nalishlari” deb nomlanib, bu bobda ta’lim boshqa tilda olib boriladigan sinflarda o'zbek tilini o'qitishning o'ziga xos usullari va tamoyillari, shuningdek, «O'zbek tili» o'quv fanining samaradorligini ta'minlovchi omillar xususida o'z fikr-mulohazalarimizni berdik. Nihoyat tadqiqotimiz nihoyasida umumiy xulosalarimiz bilan birgalikda kuzatishlarimiz natijasida o'z tavsiyalarimizni va bevosita mavzuga dahldor bo'lgan adabiyotlar ro'uxatini keltirdik.

I BOB

TURKIYZABON SINFLARDA O'ZBEK TILINI O'QITISHDA E'TIBORTALAB MASALALAR

Takomillashtirilgan DTS, yangi dastur va ular taqozosida tuzilib, maktab amaliyotiga joriy qilingan darsliklar O'zbekiston Respublikasi XTV tomonidan «Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan umumta'lim maktablari uchun darslik» atamasida tasdiqlangan⁶. SHu asosda O'zbekiston Respublikasi XTV Respublika Ta'lim markazi tomonidan «O'zbek tili» o'quv fanidan majburiy standart nazorat ishlarini o'tkazish yuzasidan tavsiyalar» mavzusida tasdiqlangan tavsiyanomada ham «Ta'lim boshqa tillarda» degan atamaga urg'u berilgan⁷, turkiyzabon sinflar, rusiyzabon sinflar tushunchalari ajratib ko'rsatilmagan. Vaholanki, ular ikkinchi tilni asosiy fanlarning biri sifatida o'qitish uchun didaktik tamoyil taqozosida nihoyatda zarurdir. Zero, turkiyzabon maktablarning 5-sinf o'quvchilarining turkiy tillarning biri bo'lgan o'zbek tilidan dastur talab qilgan nutqiy ko'nikmalari sirasida ta'kidlangan birinchi didaktik talab: «Tinglab tushunish va gapirish» malakasi rusiyzabon sinf o'quvchilarinikidan ancha yuqori darajada ekanligi hech kimga sir emas. SHuningdek, yil davomida o'zlashtirilishi lozim bo'lgan so'zlarning miqdoriy ko'rsatkichi (450-500 so'z) ham ta'lim jarayoni didaktik usuli - ona tiliga qiyosan sharhlanaborish tufayli u so'zlarning ma'nosini uqib olishi engil ko'chadi. Masalan, dono, nodon, muhlat, muloyimlik, puxta, yov, lashkar (6-sinf darsligi. 14,21,27-b. rus tiliga tarjima qilingan so'zlardan). Modamiki, bunday leksik materiallarning lug'aviy ma'nosi, ba'zi fonetik farqlaridan qat'iy nazar, turkiyzabonlar: qoraqalpoq, qozoq, turkmanlar uchun tushunarlidir.

Ayni ma'noda Qoraqalpog'iston hududi umumta'lim maktablarining 5-sinfida o'zbek tilini o'qitishda qonuniy ravishda qo'yidagi asosiy masalalarga e'tibor berish lozim.

⁶ R.T o l i p o v a, N.Y o' l d o s h e v a, M.S H o m i r z a e v a. O'zbek tili. Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan umumta'lim maktablarning 5-sinfi uchun darslik. II nashr, Toshkent, «Sharq», 2005 y.

⁷ «O'zbek tili» fanidan 5-7-sinflar uchun MSNI, Toshkent, 2006 yil.

1. O'zbek tili-turkiy tillarning biri

Bu masalalaning nazariy-metodologik asosi turkologik manbalardagi tavsifu tasniflar bilan izohlandi. Zero, mashhur sharqshunos akademik A.N.Samoylovich tasnifida o'zbek tili turkiy tillarning o'g'uz (janubiy-g'arbiy), chig'atoy (janubiy-sharqiy) qipchoq guruhlariga kiritilgan. Mazkur holat turkiy tillar taraqqiyotining qonuniy hodisasi edi. Zero, o'zbek tili O'rta Osiyo va Qozog'istondagi o'g'uz, chig'atoy va qipchoq guruhlariga kiruvchi turkman, qoraqalpok, qozoq, qirg'iz, uyg'ur tillari bilan yaqin va o'xshashdir.⁸

Qonuniyki, ayni haqiqat turkiy tillar oilasiga kiruvchi qoraqalpoq, qozoq, turkman kabi tillarning leksik, fonetik va grammatik qurilishida ham o'xshashlik paydo qilgan, albatta. Buni fonetik jihatdan quyidagi faktlar isbotlaydi:

1. O'zbek tilida qo'plab so'zlar barcha turkiy tillarda, jumladan, qoraqalpoq, qozoq, turkman tillaridagidek uch fonema (tovush)lidir: bil, dil, kel, ket, qo'l, ko'z, bosh, bo'sh, tosh, ota, ona va shu kabilar. Qiyoslang: Qoraqalpoq: Bil, til, kel, ket, qol, kez, bas, bos, tas; qozoq: Kel, qol, kez, bas, bos, tas, bil, til; turkman: dil, dil, gel, git, gez, bash, bosh, dash kabilar.

2. ost, ust, ort ko'makchilari va tort, to'rt kabi so'zlar mustasno qilinsa, daraxt, baxt, go'sht so'zlaridagi kabi so'z oxirida undoshlar qator kelmaydi.

3. Turkiy tillar leksikasi uchun asos bo'lgan so'zlarning aksariyati o'zbek, qoraqalpoq, turkman tillarida ham ko'p ma'nolidir: bosh, tosh, tish, bel va h.

4. O'zbek, qoraqalpoq, turkman tillarida qo'shimchalar asosan undosh tovush bilan boshlanadi: O'zbek. Qishloqlarimizdagilardanmisiz? Qoraqalpoq. Ao'o'llaro'mo'zda g'o'lardan bo'so'z? Turkman. Obadako'laro'mo'zdanmo'so'z?.

Sanalgan o'xshashlik va yaqinliklarni ko'rsatuvchi qo'yidagicha jadvallardan iborat tarqatma materiallar dars jarayonida o'rinli foydalanila borilsa, shubhasiz, ta'lim jarayoni sub'ektlari o'rgatilayotgan leksik materiallarni

⁸ Mufasssal ma'lumot uchun qarang. U. T u r s u n o v , B. O' r i n b o e v , A. A l i e v. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, «O'qituvchi», 1995, 30-32-b. B. V e y i s o v. Turkman dilining tarixi. Ashgabad., 1992 y, 6-24-betlar. A. I s h a e v. qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalari. Toshkent, «Fan», 1977, 9-36 b.

topshiriqlarni ona tilisiga qiyosan qiziqish bilan bajaradilar, o'sha topshiriqlarda ta'kidlangan o'zbek tiliga xos fonetik, leksik hodisalarni ongli o'zlashtiradilar. Ayni maqsadda bu o'rinda ta'lim jarayoni boshqaruvchisi o'z sinfi o'quvchilari tilini nazarda tutgan holda, o'zbek-qoraqalpoq, o'zbek-qozoq va nihoyat, o'zbek-turkman tillari muqoyasasida quyidagicha jadvallardan turli didaktik maqsadlarda foydalansa, ta'lim samarasi yuksak bo'ladi. Jadvallarni kuzating.

O'zbek	Qoraqalpoq	Qozoq	Turkman
tuz	duz	tuz	duz
to'rt	tört	tört	dört
qo'zi	qozo'	qozo'	guzi
sakkiz	segiz	segiz	sekiz
dada	əke	əke	kaka
o'g'il	ul	ul	ogul
nevara	aqlo'q	nemere	agto'k... ⁹

Demak, akademik A.N.Smaylovich va boshqa tilshunos, shevashunos olimlar haqqoniy ta'kidlaganlaridek, o'zbek tilida turkiy tillarning o'g'uz gruppasiga ham, qipchoq gruppasiga ham mushtarak bunday lisoniy xususiyatlarni ta'lim jarayoni taqozo qilgan holatlarda o'quv topshiriqlari kiritib, ona tiliga qiyoslash orqali til o'rganuvchilarga amaliy uqtira borish samarali usuliy-didaktik omil sanaladi. Masalan, shaxsni mashg'uloti, kasbi-koriga ko'ra nomlash mavzusi talabini bajarish topshirig'ini bajarishda «Ona tilingizda qorindoshlikni ifodalovchi so'zlarni ro'yxat qiling, ulardan ba'zilarini qatnashtirib, 3-4 ta gap tuzing», degan topshiriq berish ot mavzusi uchun xarakterlidir.

Turkiy tillarning biri bo'lmish o'zbek tili qoraqalpoq, qozoq tillaridan quyidagicha o'ziga xosliklari-farqli tomonlariga ham ega. Bularni o'sha sinflarda dars beruvchi o'qituvchilar, albatta, nazarda tutmoqlari zarur, o'quvchilarga bu

M.S a p a r o v. Xorazm vohasidagi turkiy tillarning o'zaro munosabatlari. Toshkent, «Fan», 1981, 58-77-b.

⁹ Bu kabi qiyosiy jadvallarni tayyorlash uchun qarang. O'zbek tili leksikologiyasi. «Fan», 1981 y. Umumturkiy so'zlar mavzusi. 58-77-betlar.

holatni amaliy uqtirishlari shart. Masalan, o'zbek tilida O' unlisining qozoq, qoraqalpoq va turkman tillari Ə fonemasi (o'ra-əra) bilan ifodalanishiga doir og'zaki yozma topshiriqlar.

O'zbek tilining o'ziga xoslik jihatlari quyidagilarda yaqqol namoyon bo'ladi.

1. Fonetik jihatdan unlilarning miqdor-sifatiga ko'ra farq qiladi. Masalan, o'zbek tilida unlilar 6, turkman tilida 10, qoraqalpok tilida 10 ta va h.k. Qiyoslang.

	Kirill yozuviga asoslangan alifboda	Lotin yozuviga asoslangan alifboda
O'zbek	i, e(e), a, o, u, o'	a, e, i, o, u, o'
Qoraqalpoq	a, ə, o, ɵ, u, ʏ, i, o', e, e	a, ä, i, o, ö, u, ü, I, e
Turkman	a, ə, o, ɵ, u, ʏ, e, i, o', e	a, ə, o, ɵ, i, y, i,

Eslatma: Qoraqalpoq tilida harfning o'ng tomoni yuqori baravarligida qo'yilgan yuqoridan pastka vergul (,) tarzidagi belgi bosmada unlilarning yumshoqligini ifodalash uchun ishlatiladi, yozma shriftida ayni funktsiyada o'sha belgi qo'yiladigan harflar ustiga yotiq yoy shaklidagi chiziq chiziladi. Turkman tilida shu vazifada bosmada harf ustiga ikki nuqta qo'yiladi, faqat birgina tovush (ə: ördək kabi) da o unlisi o'rtasiga to'g'ri chiziq chiziladi.

O'zbek tilshunosligida o'zbek tilida 6 ta unli mavjud deb izohlanishi unlilar ohangdoshligi qonuni-singarmonizm qonuni bilan aloqador xulosa bo'lishi tabiiydir. Zero, «Eski o'zbek tilida unlilar o'yg'unligi bo'lgan, lekin u qattiq va yumshoqlikka qarab farqlangan: kelduk. Hozirgi o'zbek adabiy tili esa singarmonizmning zaifligi jihatidan birorta turkiy tilga mos kelmaydi»¹⁰

Ayni holat keyingi yillarda o'zbek tilini sun'iy ravishda qozoq, qoraqalpoq, turkman tillaridan uzoqlashtirishga olib kelgan. Chunki eski o'zbek tilidagi unlilar uyg'unligi hozirgi o'zbek adabiy tilida mutlaqo izziz yo'qolib ketmagan. Darvoqe, «Ayrim o'zbek shevalarida to'qqizta unli fonema bor: a,ə,k(e), o, ɵ, o', i, u, ʏ. SHuningdek, juft va kontrast unlilar mavjud: a-ə, o-ɵ, o'-i, u- ʏ ayrim o'zbek

shevalarida o'g'uz va qipchoq singarmonizmning tanglay uyg'unligi to'la saqlangan»¹¹.

Demak, o'zbek adabiy tili singarmonizmning zaifligi bois fonetik tizimida 6 unliligi bilan qoraqalpoq, qozoq va turkman tillaridan farq qiladi.

2. O'zbek tili qoraqalpoq, qozoq tillaridan undoshlar tizimida ham o'ziga xosliklari bilan farqlanadi. Bular sh>s, ch>sh, q,g'>o'(v), g>y, x>q, b>p, hodisalarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Misollar:

sh>s. O'zbek. Besh, bo'sh, sholi, shum, beshov; qoraqalpoq. bes, bos, salo', sum, beseo'; qozoq: bes, bos, besik, samal, sum va h.

ch>sh. O'zbek. chigit, chegara, pichan, pichoq; qoraqalpoq. shigit, shegara, pishen, po'shaq; qozoq: shegara, pishen, shelpak, po'shak va h.

q,g'>o'(v). O'zbek. buzoq, bo'g'in, og'zaki, bug'; qoraqalpoq. buzao', buo'o'n, ao'o'zeki, ao'o'zsha, puo'; qozoq: bo'zao', buo'n, auzsha, pu va h. shakllar

x>q. O'zbek. Xalta, xato, xom, xotin, xum; qoraqalpoq. qalta, qote, qam, qato'n, qum; qozoq: qalta, qote, qam, qato'n, qum va h. shakllar

b>m, b>p. O'zbek. Bo'yin, burun, burundiq, bo'r; qoraqalpoq. moyo'n, muro'n, muro'ndo'q, por; qozoq: moyo'n, muro'n, muro'ndo'q, por singarilar.

3. Turkman tili turkiy tillarning o'g'uz gruppasiga mansublikdan o'zbek tili turkman tilidan ham undoshlar tizimidagi ba'zi o'ziga xosliklari bilan farqlanadi:

1. O'zbek tilidagi jarangsiz T,K undoshlari o'rnida bir qator so'zlarda turkman tilida jarangli D,G undoshlari ishlatiladi: o'zbek. Tosh, temir, temirchi, tog' va h.; turkman: dash, demir, demirchi, bag va h.

2. O'zbek tilidagi jarangsiz CH undoshi o'rnida ayrim so'zlarda turkman tilida J undoshi ishlatiladi: o'zbek: achchiq, chuchuk, kuchuk; turkman: ajo', suyji, gujuk va h.k.

¹⁰ U.Tursunov, J.Muxtarov, SH.Rahmatullaev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 1992 y, 17-20, 24, 31-betlarni kuzating.

¹¹ A.Ishaev. Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalari. Toshkent, «Fan», 1977. 9-36-betlar.

Bulardan tashqari a>e: surma-surme, m>b: muz-buz g'>g: bog'-bag (sad) q>g: qiz-go'z, quloq-gulaq, qo'shmoq-goshmak kabi ko'pgina fonetik jarayonlar mavjudligi, o'zbek tiliga xos bo'lgan tovushi H undoshining yo'qligi bilan farq qiladi.

Xullas, o'zbek, turkman tillariaro fonetik jihatdan qator umumiylik, yaqinliklar mavjudligi bilan bir qator, ayrim o'ziga xosliklar ham mavjud: h, g', q undoshlari va h.k.

4. Turkiy tillarning biri sifatida o'zbek tilining grammatik qurilishida ham qoraqalpoq, qozoq, turkman tillari bilan umumiylik-o'xshash tomonlari va farqli o'ziga xosliklar ham mavjud.

So'z turkumlari, so'z yasovchilar va h.k bir-biriga o'xshaydi. Ularning atamaları har bir tilning fonetik qonuniyatlari bilan izohlanadigan shakliga ko'ra farqlanadi: sifat-kelbetlik. Masalan: o'zbek adabiy tilida ko'plikni ifodalovchi –lar qo'shimchasining qozoq, qoraqalpoq tillarida bir necha variantlari bor: qoraqalpoq: -lar, -ler; turkman: -lar, ler; qozoq: -lar, -ler, -dar, -der, -tar, -ter; kabi variantlar mavjud.

SHuningdek, kelishik, egalik, shaxs, zamon ko'rsatkichlarida ham turlicha fonetik variantlar ishlatilganligi turkiy tillar fonetik qonuniyatlari bilan izohlanuvchi hodisadir, albatta: o'zbek: qaratqich kelishigi ko'rsatkichi –ning; qoraqalpoq ielik sepligi –no'Ҳ, -niҲ, -do'Ҳ, -diҲ, -to'Ҳ, tiҲ.

Bunday qiyosiy faktlarni ko'plab keltirish mumkin. Qiyoslangan hodisalarning o'ziyoq, shubhasiz, qiyoslanyotgan tillarning fonetik tizimi, leksikasi va grammatik qurilishida mushtarakliklar hamda o'ziga xosliklar mavjudligi bir oilaga qiruvchi tillar uchun ob'ektiv qonun ekanligini yaqqol qo'rsatib turibdi.

Demak, turkiyzabon sinflarda o'zbek tilini o'qitishda ayni holat ta'lim sub'ektlari aqliy faoliyati uchun qulay didaktik omil hisoblanadi. SHuning uchun ta'lim jarayonini boshqaruvchi-bilim beruvchi, malaka va ko'nikma hosil qiluvchi ana shu didaktik imkoniyatlardan nutqiy mavzu, nutq namunalari, berilishi lozim bo'lgan eng zarur grammatik bilimlar me'yorida foydalana borsa, o'ylaymizki, ikkinchi tilni-turkiy tillarning biri bo'lgan o'zbek tilini o'rgatish kutilgan natija

berishi tabiiy. Zero, aqliy faoliyat ko'rsatuvchi sub'ekt dastlab u hodisani o'z ona tiliga qiyoslab hukm chiqaradi. Ayni maqsadda o'qituvchi yangi dasturning material hajmi va talablarini ilmiy-nazariy, usuliy-didaktik jihatdan a'lo darajada o'zlashtirgan bo'lishi lozim. Aksincha, bosh maqsadga erishmoqda ancha qiyinchiliklar kelib chiqadi.

2. 5-sinf dasturining material hajmi va didaktik talablari

2005-2006 o'quv yilidan amaliyotga joriy qilingan yangi dasturning material hajmi «Mustaqil O'zbekiston», «YOzgi ta'til», «Bilim-xazina», «Til-do'stlik kaliti», «Tabiat muzeyida» singari 24 ta nutqiy mavzudan iborat. Ularning har biri 2 soatdan 48 soatlik o'quv mashg'ulotlariga taqsimlangan. To'rt choraklik o'quv mashg'ulotining qolgan 20 soati matn yaratish, diktant yozdirish, test sinovlariga ajratilgan.

Har bir nutqiy mavzu uchun aniq didaktik talablar belgilangan, aniqrog'i, nutqiy mavzuning konkret mazmuni, talabi, qaysi grammatik mavzuga talluqli ekanligi qayd qilingan. Bu holat ta'lim jarayonini boshqaruvchilar faoliyati uchun anchagina qulayliklar yaratgan. U o'qituvchi uchun darsga materiallar saralashda usuliy-didaktik va nazariy jihatdan alohida tavsiyanoma vazifasini bajaradi. Masalan, shaxsni harakat va holat belgisiga ko'ra nomlash uchun o'qigan bola, turgan qiz, yozadigan kishi, ishlayotgan xodim, raqsga tushayotgan qizcha, kelmagan o'quvchi kabi o'nlab so'zlarning sharhi misolida sifatdoshning o'tgan zamon, hozirgi zamon, hozirgi-kelasi zamon shakllarining –gan-yotgan,-(digan) qo'shimchalari bilan yasalishi o'qituvchi-o'quvchi muloqoti asosida aniqlanadi. Nihoyat, sifatdoshning zamonlari, sifatdosh yasovchi qo'shimchalarning yasalishi to'g'risida umumlashma-xulosa chiqariladi.

Ayni maqsadga erishmoq, xulosani amaliy sinovdan o'tkazmoq uchun drslikda berilgan «Gulla, yashna, mustaqil O'zbekistonimiz» nutqiy mavzusiga 9 ta mashq-o'quv topshirig'i berilgan (3-10 bet) ular dasturda ikki mashg'ulotga rejalashtirilgan (MSNI to'plami. 49-bet). Ulardan uchitasi «Qovun sayli»,

«YUrtimiz chiroyi», «Mustaqillik bayrami» mavzularidagi kichik matndan iborat bo'lib, ular talabini bajarish jarayonida o'quvchining to'g'ri, ravon, ifodali o'qish malakasi takomillashtiriladi. Qolgan 13 ta mashqda eslatilgan umumlashgan xulosa amaliy mustahkamlanadi, sinaladi.

Demak, ana shunday o'quvchi eng muhim nutqiy faoliyati yuzasidan nutqiy ko'nikma hosil qilish uchun 25 ta nutqiy mavzu bo'yicha 68-70 soatlik o'zbek tili mashg'uloti yangi dastur talabi darajasidagi yillik mashg'ulotlarining mazmuni, ya'ni material hajmi va me'yori hisoblanadi.

Har bir o'zbek tili mashg'ulotining bosh maqsadi-nutqiy ko'nikma hosil qilish uchun tavsiya qilingan nutqiy mavzu talabini bajarishga qaratiladi, barcha tadbirlar shunga xizmat qiluvchi didaktik omillardir. Zero, «Til ta'limining zamonaviy usullarida, xususan, xorijiy tillarni o'qitishda, jumladan, o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda ham samarali qo'llanilib kelayotgan metodik tizimlarda nutq vaziyatlari va nutqiy mavzulardan keng foydalanish ko'zda tutiladi. Bu vositalar yangi nutqiy mavzuni o'rgatish bosqichidan tortib, to nutqni takomillashtirish bosqichiga qadar amalga oshiriladigan barcha metodik tadbirlar va mashqlarga asos qilib olinadi»¹²

Ayni maqsadda 5-sinf uchun dasturda materiallarning quyidagi tartibda joylashtirilishi bejiz emas, albatta:

1. Mavzu buyicha nutq namunalari
2. Mavzuda belgilangan nutqiy vazifani bajarish uchun zarur bo'lgan grammatik materiallar
3. Leksik materiallar

Fikrimizcha, bular har biriga 2 soatdan ajratilgan 25 ta nutqiy mavzuning mazmuni, ularning har biriga 45 daqiqalik o'zbek tili mashg'ulotlarining mazmuni hisoblanadi. Ular dars rejasi, konspektida mufassal aks etmog'i lozim. SHundagina ikkinchi tilni-bu o'rinda o'zbek tilini o'rganuvchilar uchun tashkil qilinayotgan har bir dars yuksak saviyada o'tadi va nihoyatda, kuzatilgan natijani beradi, shubhasiz, bosh maqsadga erishiladi.

¹² A.G'.Muhiddinov. O'quv jarayonida nutq faoliyati. Toshkent, «O'qituvchi», 1995 yil, 37-bet

Dasturda 25 ta nutqiy mavzular taqozosidagi nutqiy vazifani bajarish uchun 5-sinf o'quvchilariga tilning fonetik va gramatika, so'z yasashi va imlo sathlari bo'yicha beriladigan eng zarur grammatik bilimlar asosan ot, sifat, son, fe'l, sifatdosh, ravishdoshlarga dahldordir.

5-sinfga me'yorlashtirilgan ayni lisoniy bitimlar shaxs-predmet, belgi, miqdor, harakat-xolat, harakat tarzi kabi tushunchalarni ifodalaydi. Bular dasturda berilgan 25 ta nutqiy mavzuning mazmuni hisoblanadi. Masalan, dasturning «YOzgi ta'til taassurotlarim» deb nomlangan ikkinchi nutqiy mavzusi uchun echiladigan asosiy muammo predmetni hajm o'lchoviga ko'ra ta'riflashdir. Buning uchun sub'ekt faoliyatiga darslikda «Ulkan samolyot», «Ulkan tort», matnlari, hajm va o'lchovni ifodalovchi so'zlarni belgilash, sonlarni so'z bilan yozish, son+ot qolipida so'z birikmalari tuzish kabi 9 ta o'quv topshirig'i muammo sifatida qo'yilgan (Darslik, 8-13-betlar)

SHubhasiz, muammoni echish, miqdor, og'irlik, hajm, o'lchovini ifodalovchi so'zlardan qo'llab so'z birikmasi hosil qilish, ulardan gaplar tuzish o'quv masalalari echiladi. Bunday malakalarni echishga darslikda qayd qilingan 9 ta o'quv topshirig'ining didaktik imkoniyati to'la javob beradi. Buning uchun ta'lim jarayonini boshqaruvchining mavzu taqozosida muammoli vaziyat qo'ya bilishi, uning echimiga sub'ekt faoliyatini to'g'ri yo'naltira olishi lozim. Masalan, darslikda berilgan (8-bet) sakkizta so'z birikmasi-leksik materiallar asosida o'qituvchi-o'quvchi muloqati:

10 litrlik katta chelak.

O'qituvchi: -Mazkur birikmada hajm o'lchovini bildiruvchi so'z qaysi?

O'quvchi: -Bu birikmada litrlik so'zi hajm bildiradi.

O'qituvchi:-100 kilometrlik masofada-chi?

O'quvchi:-Bu birikmada kilometrlik so'zi uzunlik o'lchovini bildiradi.

Qolgan 6 ta so'z birikmasi ham xuddi shu usulda aniqlangach, ular ishtirokida gaplar tuzish, o'rni bilan matn yaratish aqliy faoliyat tashkil qilinadi.

Bu o'rinda qonuniy ravishda tug'iladigan bir savolga javob berish joizdir.

- Nima uchun 9 ta o'quv topshirig'ida ta'kidlangan hodisa-masalalarni an'anaga ko'ra «O'zbek tilida sonlar» yoki «sanoq sonlar va ularning imlosi» degan mavzularda o'rgatmaymiz?

Javob: -Til o'rgatishning eng ilg'or va samarali bo'lgan funktsional-semantik tamoyili talablaridan chetlanib, o'zbek tili mashg'ulotlarida asosiy e'tibor grammatikallashtirishga qaratilgan bo'lar edi. Zero, hozirgi kunda ikkinchi tilni o'zbek tilini turkiyzabon sinflarda o'qitishning bosh maqsadi-ta'lim oluvchilarning og'zaki va yozma nutq ko'nikmasini to'g'ri, ifodali o'qish, tushunish, fikrlash malakasini tarkib toptirishdan iborat.

A'nanadagi «grammatika-grammatika uchun»qolipiga asoslanib til o'rgatish bo'lar edik. Vaholanki, funktsional-semantik tamoyil taqozosida «grammatika-fikrning aniq va lo'nda ifodasi uchun» (DTS, 1999, 55-b) shioriga amal qilinadi.

Dasturning material hajmi va didaktik talablarining yana biri 7-sinf o'zbek tili mashg'ulotlarida asosiy maqsad hisoblangan nutqiy malakalar hosil qilish masalasining doimo nutq odobi bilan uyg'unlikda echilishidir. SHu ma'noda 5-sinf dasturida qayd qilingan nutqiy mavzularning bir qismini murojaat etish, murojatga javob; hol-ahvol so'rash unga javob; rozilik berish, rad javob berish; kechirim so'rash, kechirim so'rashga javob berish, taklif etish, tasdiqlash va inkor etish singari muomala odobiga oid o'nlab materiallar tashkil qilishi bejiz emas, albatta.

Muomala odobining «Muomalaga oid so'z va iboralar» ruknida o'nlab o'rinlarda berilishiga doir so'z va iboralarni tanlash o'qituvchidan alohida mehorat, mas'uliyat, sinchkovlik, tarbiyashunoslik didni talab qiladi. Zero, «Tanishimiz yoki do'stlarni uchratganda ularni «Assalomu alaykum», «YAxshimisiz?» kabi so'zlar bilan qarshilaymiz. Bunga javoban «Vaalaykum assalom», «Rahmat» degan jummalarni eshitamiz. Kundalik hayotda bo'ladigan muloqatda nutqiy vaziyatga qarab murojaat etish, mehmonni qarshilash, tabriklash va shu kabilar uchun qo'llanadigan maxsus so'z va iboralarni bilish va ularni vaziyatga muvofiq ishlatish madaniyat, odob mezonlari qatoriga kiradi»¹³

¹³ I.Qo'chqorboev, A.Rafiev. Kundalik muloqot so'zlashgichi. Toshkent, «O'zbekiston», 1994, 4-bet

Ta'kidlanayotgan muammolar uchun bir fidoyi o'qituvchi Mirzakalon Ismoilning «Inson husni» kitobining «Odamiylik qissasi» bo'limida «Kungilxonlik» mavzusida berilgan quyidagi parchani tanlagan deb faraz qilamiz:

«Har bir xalqda bo'lganidek, o'zbek xalqida ham kishi ko'ngilini ko'taradigan dilrabo so'zlar istagancha topiladi. Ertalab, kunduzi, kechqurun, kechasi ko'rishganda yo xabarlashganda bildiradigan istaklar: Iboraning uzayib ketishidan qo'rqib «Xayrli erta», «Xayrli kun», «Xayrli oqshom», «Xayrli tun» demay o'zbekona «Ertangiz xayrli bo'lsin», «Oqshomingiz xayrli bo'lsin» deyaverish ma'qul. Darhaqiqat, adib to'g'ri ta'kidlaganidek, o'quvchilarning nutqi «CHO'ltoq bo'lib xunuk bo'lganidan uzun bo'lib chiroyli bo'lgani yaxshi»¹⁴

Ikkinchi bir fidoyi o'qituvchi o'sha kitobdan quyidagi diologik parchadan nutqiy ko'nikmalar hosil qilish maqsadida foydalanibdi:

... - Voy, sizdan aylanay buvijon-ey, albatta kiramanda.

... - Mayli, qizim, mayli. YUvib bo'lib kirarsan... Tursunoy katta bo'lib qolsa ham buvijoniga erkalashini qo'ymas edi...

- Sen bilan bir to'g'rida gaplashib olmoqchi edim, qizim,-dedi Saodat buvi...

- Voy o'lmasam, yomon gapmi, buvijon?

- Yo'g'-e, aylanay. YAxshi gap, ha yaxshi.

- Ayting, buvijon, jon deb eshitaman (o'sha manba, 114-115-b.)

Keltirilgan parchalarning birinchisi 5-sinflar uchun dasturda tavsiya qilingan nutqiy mavzularning hol-ahvol so'rash, unga javob, istak bildirish, istakka javob kabi muomala odobiga, ikkinchisi «shaxsni ifodalash» mavzusining «oila va qorindosh-urug'chilikka oid so'zlar», «SHaxsni erkalab va kichiraytib ifodalash» mavzulariga tipik leksik material bo'lishi tabiiydir.

Bular nutqiy ko'nikmalar hosil qilish vazifasining nutq odobiga doir materiallar bilan uyg'unlikda bajarilishi didaktik qonuniyatining isbotidir.

Dasturning material hajmi, didaktik talablarini aniq tasavvur qilish uchun 5-sinfda ba'zi nutqiy mavzular bo'yicha quyidagi jadvalni kuzating.

T №	Nutqiy mavzular	Nutqiy mavzuning grammatik bilim berish maqsadi	Grammatik BKM qaysi mavzudan
1	Gulla, yashna, mustaqil O'zbekiston	SHaxsni harakat va holat belgisiga ko'ra nomlash talab etiladi.	Sifatdosh. «Sifatdoshlarning yasalishi» mavzusidan
2	YOzgi taassur- otlarim	SHaxsni uning o'rin-joyi va makoniga ko'ra nomlash	O'rin-joy, makon bildiruvchi so'zlarning yasalishi» mavzusidan – lik, -dagi qo'shimchalari, dan kelgan, da yashaydigan qurilmalari
3	Ustozimga ta'zim	Harakat bajaruvchisi ta'kidlash va to'siqlik munosabatini ifodalash: <u>o'zi</u> yosh bo'lsa <u>ham</u> ...	«o'zlik olmoshi», «shart mayli» mavzularidan
4	Oila iqtisodi	Predmetning taxminiy o'lchovi va qiymatini ifodalash. Taxminan 10 kilogramm	«Son», «Hisob» so'zlar mavzusidan
1	2	3	4
5	Pazandachilik sirlari	Miqdorning qismini ifodalash, ularning ikki xil qo'llanilishi va imlosi	«Kasr sonlar». Miqdorning qismini ifodalovchi hisob so'zlarning ot bilan birgalikda kelishi
6	Insoniy fazilatlar	Mavhum tushunchalarni	«Ot», «Mavhum ot»

¹⁴ M.Ismailiy. Inson husni. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent, 1989, 39-42-b. Ayrim o'zgarish va qisqartirishlar bilan sharhlab berildi. Y Ana qarang.O'sha manba 114-115 b.

	ifodalash. Tinch <u>lik</u> , kul <u>gu</u> , or <u>zu</u>	mavzularidan –lik, - chilik, -garchilik
--	---	--

Namuna sifatida keltirilgan nutqiy mavzular uchun yangilangan shaharlar, o'qigan bola, amerikalik sayyoh, o'ziga ayting, o'zi yosh bo'lsa ham, besh yuz dona, 50 gramm, besh tonna, chorak, bir tomchi, uchdan bir; yaxshilik, saxovat, orzu, kulgi, ishonch, odamgarchilik singari leksik materiallar ham berilgankim, ular nutqiy mavzulardan kuzatilgan bosh maqsadning-nutq o'stirishning asosiy leksik vositalari vazifasini bajaradi. Grammatik BKM lar esa bosh maqsadning echimida yordamchi vositalar vazifasini bajaradi.

Xullas, qorakalpoq, qozoq, turkman sinflarida o'zbek tilini o'qitishda o'zbek tili-turkiy tillarning biri ekanligidan bulararo fonetik, leksik va grammatik qurilishdagi mushtaraklik va o'ziga xosliklar hisobiga olinadi. Ayni holat dasturga kiritilgan nutqiy mavzularni o'rgatishda anchagina didaktik qulay omil sanaladi.

II BOB Ta'lim boshqa tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini samarali o'qitishning asosiy yo'nalishlari

1. O'zbek tilini o'qitish usullari va tamoyillari

Ta'lim printsiplari jamiyatimizning maktab oldiga qo'ygan talablaridan kelib chiqadi. SHaxsni har tamonlama rivojlantirish, uning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish o'qitish printsiplarini amalda to'g'ri qo'llash bilan chambarchas bog'langan.

O'qitish printsiplari nima?. «printsiplari» lotincha so'z bo'lib, asos, qoida, talab singari ma'nolarni ifodalaydi. «O'qitish printsiplari» deganda dars samardorligini ta'minlash, ta'lim jarayonini tashkil etish, uyushtirishga qo'yilgan asosiy talablar, qoidalar tushuniladi. O'qituvchi ta'lim ishini tashkil etar ekan, ana shu qoida va talablardan kelib chiqadi va ular o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlagan holda amalda tadbiq etish orqali ko'zlangan maqsadga erishadi.¹⁵

O'zbek tilini o'qitishda bir tomondan umumdidaktik printsiplar, ikkinchi tomondan davlat tilini o'qitishning o'ziga xos printsiplarini hisobga olishga to'g'ri keladi.

Umumdidaktik printsiplar garchand maktabda o'qitiladigan barcha fanlarga aloqador balsa-da, ammo u har bir fanning ichki tabiatidan, o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Maktabda o'qitiladigan hamma fanlar uchun umumiy bo'lgan didaktik printsiplar: o'qitishning bolaga bolaga ma'lumot berishi, tarbiyalash va rivojlantirishga qaratilganligi; o'qitishning ilmiyligi va bolalar uchun tushunarli, sistemaviylik va izchillik; nazariya bilan amaliyotning uzviy aloqasi ongillik, faollik, mustaqillik, ko'rsatmalilik, o'quvchilarga individual munosabatda bo'lish va ularning o'quv imkoniyatlarini hisobga olish kabi printsiplar garchand umumdidaktik printsiplar sanalsa-da,¹⁶ o'zbek tilini o'qitish usuliyatida ularning har biri o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

¹⁵ A.Q.G'ulomov. Ona tili o'qitish printsiplari va metodlari. (O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma). Toshkent, «O'qituvchi», 1992, 5-bet.

¹⁶ A.Q.G'ulomov., M.Qodirov. Ona tilini o'qitish metodikasi. Toshkent, «Universitet nashriyoti», 2001 yil, 35-36-betlar.

Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tili (Davlat tili)ni o'qitishda yuqorida biz qayd qilib o'tgan umumdidaktik printsiplar bilan bir qatorda shu fanning tabiatidan kelib chiqadigan quyidagi o'ziga xos printsiplar ham mavjud: a) o'zbek tilini o'qitishda o'quvchilarning o'zbekcha nutq malakalarini shakllantirish printsipi; b) o'zbek tilini o'qitishda bilingivizm sharoiti va ta'sirini hisobga olish printsipi; v)o'zbek tilini o'qitishda mavzulararo, fanlararo, bo'limlararo bog'lanishga qat'iy amal qilish printsipi; g)o'zbek tilini o'qitishda til hodisalarini qiyosiy o'rgatish tamoyili.

Maktabda o'zbek tilini o'qitishning bu o'ziga xos printsiplari umumdidaktik printsiplar bilan uyg'unlashib, ikkinchi tilni o'qitishda ko'zlangan maqsad va vazifalarning amalga oshirishini ta'minlovchi asosiy talablar silsilasini vujudga keltiradi.

Quyida biz umumdidaktik printsiplar va ikkinchi tilni o'qitishning o'ziga xos printsiplariga aloxida to'xtalib o'tamiz.

Ta'lim tarbiya va rivojlanishning uyg'unligi printsipi. Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarda o'quvchilar o'zbek tilining fonetikasi, leksikasi va grammatikasi yuzasidan o'ta zarur bo'lgan ilmiy bilimlar silsilasi bilan qurollantiriladi.. Ayni vaqtda o'zbek tilini o'qitish mashg'ulotlari o'quvchi shaxsini tarbiyalash va uni rivojlantirish vositasi hamdir.

Ta'lim, tarbiya va rivojlanish - bir butun jarayondir. Ularni bir-biridan ajratgan holda yoki alohida-alohida darsning bir bosqichida birin-ketinlik bilan amalga oshirib bo'lmaydi. O'quvchilar til hodisalarini o'rganishar ekan, ayni vaqtda ularga tarbiya beriladi, shaxsi rivojlantiriladi.¹⁷ Zero, o'zbek tilini o'qitishdan ko'zlanadigan bosh maqsadlardan biri, ikkinchi til vakillarini O'zbekistonning boy ma'naviy merosi, milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini hamda an'analari bilan yaqindan tanishtirish va bu qadriyatlarimizga muhabbat tuyg'usini shakllantirishdan iboratdir. SHu bois davlat tilini o'qitishda tanlanadigan ma'rifiy matnlar «O'zbek

¹⁷ A.QG'ulomov., M.Qodirov. Ona tilini o'qitish metodikasi. Toshkent, «Universitet nashriyoti», 2001 yil, 35-36-betlar.

tili» o'quv fanini o'qitishdan ko'zlanayotgan bosh maqsadning amalga oshishini ta'minlasa, ikkinchidan, ta'lim, tarbiya va rivojlanishni ta'minlovchi muhim vositasi hisoblanadi.

SHunday qilib, o'zbek tili mashg'ulotlari ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni ko'zlaydi.

«O'zbek tili» o'quv fanini o'qitishda sistemaviylik va izchillik printsiplari. O'zbek tili o'quv fani sifatida ma'lum bir izchillikni tashkil qiladi. Ma'lumki, ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning 2-9-sinflarida ana shu izchillikka asoslanilgan holda o'zbek tilining fonetik, leksik, grammatik tomonlari o'rganiladi. Bu sistemaani tashkil qilgan til unsurlarining o'ziga xos xususiyatlari bilan birga bir-biri bilan chambarchas bog'langan.

Maktabda tilning fonetikasini o'rganmasdan uning grammatikasini o'rganish mumkin emas. Bu isbot talab qilmaydigan aksiomadir. O'zbek tilining nutq tovushlarini va uning grafikasini yaxshi o'zlashtirgan o'quvchigina o'zbek tilida tovushlarni to'g'ri farqlay oladi, ularni to'g'ri talaffuz qilaoladi, to'g'ri yoza oladi natijada birinchi navbatda bolada o'zbek tilida gapirish ko'nikmalari shakllana boradi. Fonetika va grafikani puxta o'zlashtirgan o'quvchigina leksikani yetarli darajada o'zlashtiradi v.h. SHuning uchun til hodisalarini o'zaro uzviy aloqadorlikda o'rgatish «O'zbek tili» o'quv fanini o'qitishning samaradorligini ta'minlovchi muhim vosita sanaladi.

Demak sistemaviylik va izchillik printsiplari o'zbek tili fanining mazmunini belgilashda shuning bilan birga o'qituvchi va o'quvchi faoliyatida ham o'z ifodasini topadi.

O'zbek tilini o'qitishda o'quvchilarning o'zbekcha nutq malakalarini shakllantirish printsiplari.

Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning ikkinchi bo'g'inida davlat tili - o'zbek tilining o'qitilishi juda katta ijtimoiy, ma'naviy ahamiyatga molik masalalardan biri sanaladi. Uning ijtimoiy, ma'naviy ahamiyati shundaki, o'zbek tilini bilgan qoraqalpoq o'quvchisi ertangi mustaqil turmushga dadil qadam

tashlaydi, ayni vaqtda muloqot chegarasi kengayadi; jamiyatda o'zining munosib o'rnini egallaydi, uning ma'naviy olami kengayadi. U nafaqat qoraqalpoq xalqining o'tmishi, urf- odatlari, an'analari, badiiy adabiyoti namunalari bilan tanishadi, balki o'zbek xalqi, uning boy tarixiy o'tmishi, badiiy adabiyotini hambilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada, xar ikki qardosh xalqning do'stlik rishtalari mustaqkamroq bog'lanadi, ularning o'tmishi, urf-odatlari, an'analari orasida juda ko'p mushtarakliklar va o'ziga xosliklar borligini bilib oladi.

Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini o'qitishdan ko'zlanadigan eng asosiy maqsadlardan yana biri o'z fikrini og'zaki va yozma shakllarda bayon qilishga o'rgatish ekan, bu ishni matn ustida ishlamay turib amalga oshirib bo'lmaydi. Ular gap va matnni o'zaro qiyoslab farqini aniqlash, matnning o'ziga xos xususiyatlari ustida ishlash, matn mazmuni haqida umumlashma hosil qilish, matnni qismlarga ajratish, matnga sarlavha topish, fikrning kim yoki nima haqida borayotganligini aniqlash orqali matn ustida ishlashga o'rgatiladi.

Ma'lumki, fikrni og'zaki va yozma ravishda bayon qilish, birinchi navbatda ularning so'z zaxirasiga bog'liq. Bu zaruriy malakalarning rivojlanganlik darajasi uyadosh so'zlar qatorini davom ettirish, berilgan o'zbekcha so'zlarni muayyan uyalarga ajratish, ma'nodosh so'zlar topish singari o'quv topshiriqlarigina bu printsipni amalda tadbiq etishning eng samarali va qulay vositasi sanaladi.

O'zbek tilini o'qitishda bilingivizm sharoiti va ta'sirini hisobga olish printsiipi. Ma'lumki, O'zbekistonda juda ko'p millat vakillari yashaydi va ta'lim ham turli tillarda olib boriladi. Ta'lim boshqa tilda olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini o'qitishdan kutiladigan pirovard natija esa o'quvchilarni sof o'zbek tilida muloqot qila olishga o'rgatishdir.

Qoraqalpog'iston Respublikasining juda ko'p tumanlari (Xo'jayli, Taxyotosh, Beruniy, To'rtko'l, Nukus shahri) ikki tillilik va hatto uch tillilik sharoitida yashaydi. Albatta bunday holatga salbiy omil sifatida emas, balki ijobiy omil sifatida qaralmog'i lozim. Chunki o'zbeklar bilan yonma-yon yashayotgan

qoraqalpoq millatiga mansub bo'lgan o'quvchilar ularning ta'sirida o'zbek tilini tezroq va puxtaroq o'zlashtirib oladilar, va o'z fikrlari og'zaki va yozma sharoitda bayon qilishlarida ham unchalik jiddiy qiyinchiliklarga duch kelmaydilar. Bilingivizm sharoitida istiqomat qiluvchi qoraqalpoq o'quvchilarining so'z zaxirasi ham faqat qoraqalpoqlar istiqomat qidigan mintaqalardagi o'quvchilarning so'z boyligiga qaraganda ancha ko'p bo'ladi. DTS ning muhim talablaridan biri sanalmish matn mazmunini tushunish va o'zgalar fikrini anglash ham bilingivizm sharoitida yashaydiga o'quvchilarda ancha oson kechadi. Chunki ijtimoiy zaruriyat tufayli ular maktabga kelganga qadar o'zbek tilini kundalik faoliyatda o'rganadilar, natijada ularda bu tildan foydalanish malakalari tarkib topadi

SHunday qilib, o'zbek tili o'qituvchisi dars samaradorligiga erishi uchun bilingivistik sharoitni hisobga olishi, har ikki tilda so'zlarning talaffuzi, imlosi, ma'nosi va qo'llanilishi⁶ni hisobga olishi lozim.

2 «O'zbek tili» o'quv fanining samaradorligini ta'minlovchi omillar

Ta'lim tizimidagi ya'ni ona tili ta'limi va ta'lim boshqa guruhlarda olib boriladigan guruhlarda o'zbek tili ta'limi tizimidagi yuksak islohotlar o'zbek tili (Davlat tili) ta'limini mazmun va metod jihatdan qayta qurishga olib keldi. Bu dolzarb muammolar «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» singari davlat hujjatlarida ham ta'kidlanadi.

Ma'lumki, biz uzoq yillar davomida ta'lim boshqa tilda olib boriladigan guruhlarda o'zbek tilini o'qitishda o'quvchilarga tilning zaruriy qonun-qoidalarini, vazifalarini o'rgatish bilan cheklanib qolgan edik. Bugungi kunga kelib ta'lim jarayonidagi tub islohotlar taqozosi ila «O'zbek tili» o'quv fanining mazmuni ham, maqsadi ham o'quvchilarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda o'zbek tilida og'zaki va yozma shakllarda bayon qilish malakalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat bo'lib qoldi. Bu maqsadlarni amalga oshirish o'z navbatida ta'lim jarayonida o'qitish metodlarini to'g'ri tanlashga bog'liqdir.

"O'zbek tili" o'quv fani sifatida o'zining o'qitish metodlari, vosita va usullariga ega. Bu metod, vosita va usullar shu o'quv fanining tabiatidan kelib chiqadi.

Modomiki, "O'zbek tili" amaliy yo'nalishdagi o'quv fani ekan, uni o'qitishda ham ana shunga oid metodlarga tayanib ish ko'riladi.

Ilmiy-metodik adabiyotlarda amaliy metodlar: a) o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar: b) o'quvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar kabi ikki katta guruhga ajratiladi. O'qituvchi faoliyati bilan bogliq metodlar o'z navbatida ikki guruhga ajratiladi: a) tushuntirish-namoyish etish metodi; b) muammoli o'qitish metodi.¹⁸

O'zbek tili darslarida o'qituvchi o'rni bilan tushuntirish-namoyish etish metodlaridan, o'rni bilan muammoli o'qitish metodlaridan foydalanadi. Ammo mazkur o'quv fanining tabiati ko'proq muammoli o'qitish metodini taqozo etadi.

Muammoli o'qitish muammoli vaziyat yaratish bilan boshlanadi. Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning 5-sinflarida o'zbek tili ta'limi jarayonida muammoli vaziyat quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi.

Muammoli savol qo'yish orqali muammoli vaziyat yaratish. Savol o'qituvchi yoki o'quvchilar tomonidan qo'yilishi mumkin. Masalan, "Nima uchun "Ko'chirma gap" qo'shtirnoqqa olib yoziladi?" "Nega kishilarning ismi-sharifi va familiyasi, shahar va qishloqlarning nomlari bosh harf bilan yoziladi?" singari savollar o'rta tashlansa, o'quvchilar oldin egallangan bilimlarga tayangan holda unga javob izlaydilar.

Qoraqalpoq va o'zbek tillarini o'zaro qiyoslash orqali muammoli vaziyat yaratish. Bu usul deyarli barcha mavzularni o'rganishda amalga oshiriladi. O'qituvchi o'quvchilarga berilgan tovush (harf), so'z, so'z birikmasi, gap va matnlarni o'zaro qiyoslashni topshiradi. Egallangan bilimlarga tayangan holda ularning o'xshashlik va farqli tomonlari o'quvchilar tomonidan mustaqil aniqlanadi.

¹⁸ /ulomov A. Ona tili o'qitish printsiplari va metodlari. T.: O'qituvchi, 1992 45-b.

Tahlil orqali. O'zbek tili darslarida muammoli vaziyat yaratishning bu usulidan ham keng foydalaniladi. "O'zbek tili" darsligida o'quv materialini induktiv usulda berilgan. Bu muammoli vaziyat yaratish uchun imkoniyat tug'diradi. O'quvchilar mavzu yuzasidan berilgan mashqlarni bajarishgach, hukm va xulosalar chiqarishga kirishiladi. Masalan, Ng,Sh,Ch harfiy birikmalarning talaffuzi va imlosi yuzasidan darslikda berilgan 3 ta topshiriq (1-topshiriq-ustunchalarda berilgan so'zlarda Ng, harfiy birikmasini qiyoslab o'qing va savollarga javob bering; 2-topshiriq-birinchi va ikkinchi ustunchalardagi so'zlarni qiyoslab o'qing. O'zbek tilidagi Ng birikmali so'zlarning qoraqalpoq tilida o'qilishi va yozilishi haqida xulosa chiqaring, savollarga javob bering; 3 -topshiriq berilgan gaplarda Ng harfiy birikmasi nechta tovushni ifodalayotganini aniqlab unga sharh bering.) bajarilgach, o'qituvchi quyidagi muammoni o'rta tashlaydi:

- Nima uchun Ng, Sh, Ch harfiy birikmalarini bir-biridan ajratgan holda qatordan-qatorga ko'chirish mumkin emas?

Muammoli o'qitish muammoli vaziyat yaratish bilan tugamaydi. O'quvchi muammoni echayotgan paytda o'qituvchi bu jarayonni diqqat bilan kuzatadi va yo'l-yo'lakay ularga yordam beradi.

Muammoning echimi muammoli o'qitishning oxirgi bosqichidir. O'qituvchi o'quvchilar javobini tinglaydi, xato va kamchiliklarini to'g'rilaydi, ularni umumlashtiradi.

Muammoli o'qitish jarayonida suhbat metodidan ham unumli foydalaniladi. Odatda, suhbat vaziyatga qarab tashkil etiladi. Agar o'quvchilar qo'yilgan muammoni hech qanday tashqi yordamsiz o'zlari bajara olsalar, bunday holatlarda suhbatga ehtiyoj qolmaydi. Agar sinf o'quvchilari muammoni echishga qiynalsalar, bunday holatlarda o'qituvchi suhbat metodidan foydalanadi.

5. Tasviriylar va audiovizual vositalar orqali. Ma'lumki, o'quvchilar o'zbek tili darslarida ko'plab rasmlar, diafilm, diapozitiv va o'quv filmlari, televideniye eshittirishlari, shuningdek, gramplastinka, ovozni yozib olish va eshittirish vositalaridan foydalanadilar. Sanab o'tilgan bu vositalar orqali ham muammoli vaziyat yaratish mumkin. CHunonchi, boshlang'ich sinflarda nutqiy muloqatlar

olib borishda eng samarali usullardan hisoblangan rasmlardan foydalanish, rasm asosida suhbatlar tashkil etish, matnlar yaratish metodlaridan foydalaniladi. Bunday metodlardan foydalanishda ham savol javoblar orqali muammoli vaziyatlar yaratilishi mumkin. Masalan, kuz fasli aks ettirilgan va mevalarning o'quvchilar tomonidan yig'ib-terib olinayotganligi aks ettirilgan rasm o'quvchilarga namoiish etiladi va quyidagi muammoli vaziyat o'rta tashlanadi:

- Nima uchun mazkur rasm asosida yaratiladigan matnga "YOz boshlandi" sarlavhasini qo'yish mumkin emas? Muammoning yechimini topishda o'quvchilar o'z fikrlarini bildirishga harakat qiladilar.

Muammoli vaziyat yaratishda ovozni yozib olish va eshittirish vositalaridan ham foydalanish mumkin. Masalan, magnitafon lentasiga yozib olingan matn eshittirilib, bu matnda qanday talaffuziy xatolarga yo'l qo'yilganligi so'raldi. O'quvchilar matnni eshitib mustaqil ravishda tahlil qildilar va adabiy talaffuz me'yorlaridan chekingan holatlarni aniqlaydilar.

O'zbek tili ta'limi jarayonida muammoli vaziyat yaratish o'quvchini o'ylashga, o'z fikrini dalillar orqali asoslashga undaydi.

Muammoli o'qitish muammoli vaziyat yaratish bilan tugamaydi. O'quvchi muammoni yechayotgan paytda o'qituvchi bu jarayonni diqqat bilan kuzatadi va yo'l-yo'lakay ularga yordam beradi.

Muammoning yechimi muammoli o'qitishning oxirgi bosqichidir. O'qituvchi o'quvchilar javobini tinglaydi, xato va kamchiliklarini to'g'rilaydi, ularni umumlashtiradi. Ta'lim jarayonini anashunday shakllarda tashkil etishda o'qituvchi ta'lim jarayonining boshqaruvchisi, o'quvchilar esa bu jarayonning faol ishlovchisi sifatida ishtirok etadilar.

Muammoli o'qitish jarayonida suhbat metodidan ham unumli foydalaniladi. Odatda, suhbat vaziyatga qarab tashkil etiladi. Agar o'quvchilar qo'yilgan muammoni qech qanday tashqi yordamsiz o'zlari bajara olsalar, bunday holatlarda suhbatga ehtiyoj qolmaydi. Agar sinf o'quvchilari muammoni yechishga qiynalsalar, bunday holatlarda o'qituvchi suhbat metodidan foydalanadi.

O'zbek tili darslarining samaradorligi ko'p jihatdan o'quvchi faoliyati bilan bog'liq metodlarni to'g'ri tanlashga bogliq.

Ilmiy-metodik adabiyotlardan ma'lumki, o'quvchi faoliyati bilan bog'liq metodlarni uch guruhga ajratish mumkin: a) qayta xotirlashga asoslangan metod; b) qisman izlanuvchanlikka asoslangan metod; v) izlanuvchanlikka asoslangan metod.

Bu metodlarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, muayyan bir sharoitda qo'llashni talab etadi. CHunonchi, qayta xotirlashga asoslangan metodlar o'quvchiga muayyan bir qiyinchilik yaratmaydi, u tayyor o'quv materiali bilan ish ko'radi. Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tili darslarida o'quvchilarga beriladigan ayrim topshiriqlar oldin egallangan bilim, malaka va ko'nikmalarni yangi sharoitda qo'llashni talab etmaydi, balki tayyor bilim, malaka va ko'nikmalarni xotirada tiklaydi, xolos. CHunonchi, o'zbek tili darslarida bajariladigan, ko'chirib yozish, izohli yozuv, o'rganilgan mavzu doirasida berilgan so'roqlarga javob topish singari topshiriqlar qayta xotirlashga oid metodlarni qo'llashni taqozo etadi.

qisman izlanuvchanlik metodlari topshiriqlarni bajarishda qisman ijodiylikni talab etadi. CHunonchi, o'zbek tilidan o'quvchilar bajaradigan topshiriqlar, berilgan namunalar yoki topshiriqni bajarish uchun o'tkaziladigan suhbatlar, o'qituvchi beradigan maslaqatlar qisman izlanuvchanlik namunasidir. Nuqtalar o'rniga zarur harflar, kelishik qo'shimchalari, so'zlarni qo'yish, tayanch so'zlar yoki so'z birikmalari yordamida gaplar hosil qilish, matnlar yaratish singari topshiriqlar o'quvchidan qisman ijodiy yondashuvni, izlanuvchanlikni talab etadi.

Izlanishga asoslangan metodlar o'quvchidan tom ma'noda ijodiylikni talab etadi. O'quvchilar tomonidan mustaqil ravishda yaratiladigan matnlar uning yorqin namunasidir. Bunday topshiriqlarni bajarishda o'quvchi hech qanday tashqi yordam olmaydi, balki o'z bilimlari, tajribalariga asoslanib ularni yangi sharoitda qo'llaydi.

Demak, o'qitish metodini tanlash o'quvchilarning real o'quv imkoniyatlariga bog'liq. Real o'quv imkoniyati yuqori bo'lgan sinflarda ko'proq qisman ijodiy va ijodiy metodlarni ishga solishga to'g'ri keladi.

Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarda boshlang'ich sinflardan o'quvchilarning o'zbekcha imlo savodxonligini oshirishga alohida ahamiyat berib borish lozim. Bunday choralaridan biri turli tipdagi diktantlardan (lug'at diktanti, izohli diktant, ovozsiz diktant, tarjima diktant, ko'ruv diktanti, xotira diktant v.q.) foydalanishdir.

Lug'at diktanti o'rganilayotgan mavzuga oid 8-10 so'zdan iborat bo'lib, bu diktant turiga tez-tez murojaat qilib borilishi kerak.. Masalan, "Undosh tovushlar" mavzusini o'rganish jarayonida yonma-yon kelgan bir xil qo'sh undoshli so'zlar (ikki, katta, yetti, qattiq, taajjub, taassuf, mutafakkir, issiq, muvaffaqiyat, attang v.q.)dan, "B, D undoshlari" mavzusini o'rganishda esa shu tovushlar so'z boshida, o'rtasida va oxirida ishlatilgan holatlarga oid lug'at diktantlarini o'tkazib borish maqsadga muvofiqdir..

O'zbek tili ta'limi jaaryonida o'quvchilarning imlo savodxonligini shakllantirib borishda ovozsiz diktantlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda usuldan o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq holda narsa-buyumlar, natyurmortlar, rasmlarda tasvirlangan predmetlarni ko'rsatish orqali o'tkaziladi. O'qituvchi ko'rsatilayotgan narsaning nomini aytmaydi; o'quvchilar esa ko'rgan narsalarning nomini yozib boradilar. CHunonchi, qoraqalpoq o'quvchilariga non, g'isht, olma, anor, uzum, sabzi, bodring, buzoq singari narsalarning rasmlari ko'rsatilsa, o'quvchilar ularni o'z ona tillarida nan, go'sh, alma, anar, ju'zim, geshir, qiyar, buzaw deb o'zbek tilida esa ularni non, g'isht, olma, anor, uzum, sabzi, bodring, buzoq shaklida yozishlari mumkin.

Diktantdan keyin o'tkaziladigan suhbat jarayonida o'quvchilar o'z xatolarini aniqlashi va bu so'zlarni o'zbek tilida qanday yozish imkoniyatini bilib oladilar.

Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarda ijodiy diktantning bir ko'rinishi bo'lgan tarjima diktantlaridan ham foydalaniladi. O'quvchilar hukmiga

qoraqalpoqcha so'zlar havola etiladi va ularni o'zbek tiliga tarjima qilib yozish topshiriladi.

YUqorida tilga olingan diktant turlarini o'tkazishda imlo va talaffuz birga qo'shib olib boriladi. O'quvchilar bir vaqtning o'zida so'zlarning ham imlosiga, ham talaffuziga e'tibor beradilar.

Ma'lumki, ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini o'qitishdan maqsad o'quvchilarni o'zbek tilida o'z fikrini bayon qilish, o'zgalar fikrini tushunish va bu tilda ish yuritishga tayyorlashdir. Bu maqsadga erishish, avvalo, ularning so'z zaxirasi bilan bog'liq.

Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning boshlang'ich sinflarida o'quvchilarning so'z boyligini oshirib borish maqsadida bir qator lisoniy didaktik omillardan foydalanib borish ham maqsadga muvofiqdir.

O'zbek tili mashg'ulotlarida matn ustida ishlash. Metodlarining xilma-xil usullaridan foydalanib borish natijasida ham o'quvchining o'zbekcha so'z boyligi, ijodiy tafakkuri shakllantiriladi.

Matn nutqiy hodisa bo'lib, u ikki va undan ortiq gapning mazmunan birikishidan hosil bo'ladi. Boshlang'ich sinflar uchun yaratilgan «O'zbek tili» darsliklariga kiritilgan matnlarni ikki guruhga ajratish mumkin: 1) ta'limiy-ma'rifiy matnlar; 2) ta'limiy-tarbiyaviy matnlar.

Ta'limiy-ma'rifiy matnlar ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktab o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan nazariy bilimlarning sharhiga oid bo'lib, til hodisalarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Ta'limiy-tarbiyaviy matnlarda ko'proq tarbiya muammolari yetakchi o'rin egallaydi. Maktab darsliklari mashqlari tarkibiga kiritilgan ana shunday matnlar o'quvchilarda muayyan axloqiy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan. Namuna sifatida quyida bir matnni keltiramiz.

Topshiriq: Matnni o'qing, uning mazmuni sizni nimaga da'vat qiladi?

So'z sehri va qudrati

So'z-niqoyatda seqrli olam. Biz uning seqrini, qudratini so'zning materiali bo'lgan nutq tovushlarida ko'rgan edik. CHunki muayyan so'zdagi bitta harfni (nutq tovushini) o'zgartsak, o'sha so'zning ma'nosi hamo'zgarib ketadi.

So'zdan qudratliroq narsa yo'q. Zero, odamlar o'z fikrini so'z orqali bayon qiladilar. Ajdodlarimiz tafakkuri tajribalarining durdonalari so'zlarda ifodalanadi. Bu so'zlar xalqimizning oltin xazinasi, tafakkur gulshani hisoblanadi. SHu bois buyuk bobomiz A.Navoiy so'zni gavharga o'xshatib: "Insonni so'z ayladi judo qayvondin"-desa, qoraqalpoq xalkining faxri Berdaq : "Oltin har bir aytgan so'zim", -deb so'zni oltinga o'xshatgan.

Berilgan matnlar ustida ishlash o'quvchilar tomonidan matnlar yaratish uchun zamin hozirlaydi.

Matn yaratish. Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladi-gan maktablarda "O'zbek tili" o'quv fanini o'qitishdan olinadigan so'nggi natija o'quvchilar tomonidan yaratiladigan matnlardir. Matn ijodiy fikr maqsuli bo'lib, unda o'quvchining o'zligi, fikri, dunyoqarashi, tafakkuri, qukm va xulosalar chiqarishi singarilar namoyon bo'ladi.

O'zbek tili ta'limi jarayonida muammoli vaziyat yaratish o'quvchini o'ylashga, o'z fikrini dalillar orqali asoslashga undaydi. SHuningdek,ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tili darslarining samaradorligi, bir tomondan ta'lim mazmunining amaliy maqsadlarni ko'zlagani bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi jihatdan, davlat tili - o'zbek tilini o'qitishda ishga solinadigan qulay metod, vosita va usullar bilan belgilanadi.

Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tili ta'limi jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish

SHarqning buyuk mutafakkirlari Umar Xayyom, Abu Ali ibn Sino, Al-Farobiy va boshqalar o'qitishning eng samarali usullari xususida to'xtalib, bolani fikrlashga o'rgatishning ahamiyati beqiyos ekanligini uqtirganlar. Umar Xayyom o'zining «Matematik traktatlari»da; «Ozgina o'yla, o'zing topasan», «Ozgina fikrla

o'zing bilib olasan» degan da'vatlar orqali o'qitish lozimligini alohida uqtiradilar. Ajdodlarimiz aytgan bu fikr o'sha davr uchun ham bugungi kunda ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu fikrlar ta'lim ishini tashkil etishda o'zining zarracha qadriyatini yo'qotgan emas.

Ta'lim boshqa tilda olib boriladigan guruhlarda o'zbek tili ta'limidan ko'zlanadigan bosh maqsad o'quvchini mustaqil fikrlashga, fikr mahsulini og'zaki va yozma ravishda bayon qila olish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan ekan, bu avvalo o'qitish metodlarini to'g'ri tanlay bilishiga bog'liqdir.

Biz tajriba-sinov ishlari jarayonida o'zbek tili darslarini o'yin-topshiriqlardan foydalangan holda tashkil etishni tavsiya qildik. O'yin tarzida o'tkaziladigan darslarning samaradorligi ko'p jihatdan o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi, o'yin mazmunidan xabardorligi, o'yinga ishtirok etish tartibini bilishi bilan chambarchas bog'langan. O'quvchilar o'yinning vazifasi, bajariladigan harakatlar, o'yinning qoidasi va uni yakunlashdan xabardor bo'lishlari lozim. Dars jarayonida bajariladigan didaktik o'yinlar topshiriq shartining murakkablik darajasiga ko'ra xilma-xildir.

Ta'limiy topshiriqlar ham dars metodlariga o'xshab qayta xotirlash; qisman ijodiy va ijodiy o'yin-topshiriqlarga bo'linadi.

Quyida o'yin-topshiriqlardan ayrim namunalar keltiramiz:

1. "Tovushdoshlar" o'yini. O'quvchilarga muayyan bir so'z (masalan, qo'l) beriladi. Ular birinchi tovushni o'zgartirib, yangi so'zlar hosil qiladilar: (ko'l-mo'l-so'l-yo'l-do'l-cho'l-bo'l-to'l v.q)

Topshiriqni tez va to'g'ri bajargan o'quvchi o'yin g'olibi sanaladi.

2 "So'z juftini izla" o'yini. O'quvchilarga namuna sifatida surat-sur'at, davo-da'vo singari so'z juftlari beriladi.

Berilgan so'z juftlari qatorini o'ntaga etkazish topshiriladi. Birinchi bo'lib so'z juftlari qatorini o'ntaga etkazgan o'quvchi o'yin g'olibi sanaladi.

"Bekinmachoq" o'yini. Bu o'yinda muayyan so'zlar (mas., daftar, eshik, bola, gilam, surat v.q.) o'quvchilar hukmiga havola etiladi va ularni biror so'z

bilan bog'lash vazifasi topshiriladi: daftarning varag'i, shkafning eshigi, dono bola, chiroyli gilam, suratdan olmoq v.q.

O'yinning birinchi topshirig'i bajarilgach, ikkinchi topshirig'ini bajarishga o'tish mumkin. Bu bosqichda hosil qilingan birikmalarni qushimchalariga qarab saralash topshiriladi. O'yinning uchinchi bosqichida har bir guruhdagi so'z birikmalarini davom ettirish va ular ishtirokida gaplar hosil qilish topshirilishi mumkin.

"Estafeta o'yini". Bu o'yinda ishtirokchilardan biri muayyan so'zni aytadi. Ikkinchi o'quvchi so'z qaysi tovush bilan tugagan bo'lsa, o'sha tovush bilan boshlanadigan so'z topadi. O'yin shu tariqa davom ettiriladi. Eng ko'p so'z aytgan o'quvchi o'yin g'olibi hisoblanadi.

"Nuqtalar o'rnini so'zlar bilan tez to'ldir" o'yini. O'qituvchi o'quvchilar hukmiga ma'lum bir umumiste'mol so'zni beradi va shu so'zning barcha ma'nodoshlarini topishni topshiradi. O'quvchilar nuqtalar bilan ajratilgan nechta so'z o'rnini bo'lsa, uni ma'nodosh so'zlar bilan to'ldirishadi. Nuqtalar o'rnini ma'nodosh so'zlar bilan to'ldira olgan o'quvchi yoki o'quvchilar guruhi o'yinda g'olib sanaladi.

"Sen qanday murojaat qilasanq" o'yini. O'quvchilarga berilgan murojaat so'z birikmalari qatorini davom ettirish vazifasi yuklatiladi. Masalan, o'qituvchi tomonidan "mehribon tarbiyachi" so'z birikmasi berilgan bo'lsa, o'quvchilar bu qatorni "mo''tabar murabbiyim", "muqtaram ustozim", "aziz o'qituvchim", "hurmatli muallimjonim", "sevikli ustozim" kabilar bilan to'ldirishadi.

SHunday qilib, o'zbek tili darslarida o'yin usulidan foydalanish o'quvchilarning qiziqishini oshiradi, ularni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi, o'quv materialining oson va tez o'zlashtirishlariga ko'maklashadi.

Xullas, ta'lim boshqa tilida olib boriladigan mak-tablarning 5-sinflarida o'zbek tili darslarining samaradorligi, bir tomondan ta'lim mazmunining amaliy maqsadlarni ko'zlagani bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi jihatdan, davlat tili - o'zbek tilini o'qitishda ishga solinadigan qulay metod, vosita va usullar bilan belgilanadi.

Ta'lim boshqa tilida olib boriladigan maktablarda 5-sinfda o'zbek tili ta'limi jarayonida sayohat darslari

O'zbek tili darslarini sirtqi sayohat tarzida ham o'tkazish mumkin. Darsning bu turi o'rganilayotgan, o'rganilgan mavzu yoki bo'lim yuzasidan bilimlar mamlakatiga sayohat tarzida tashkil etiladi. O'quvchilar bilimlar mamlakatiga borishar ekan, yo'lda ularni turli o'quv qiyinchiliklari kutadi. Ana shu qiyinchiliklarni enggan, ya'ni topshiriqlarni bajargan o'quvchilar manzilga etib boradilar.

O'qituvchi o'quv topshiriqlarini o'zi tanlashi yoki darslikdan olishi mumkin. quyida ana shunday dars namunasini keltiramiz.

Undalmalar mamlakatiga sayoxat

Darsning maqsadi: a)undalma yuzasidan o'quvchilarda bilim, malaka va ko'nikmalar hosil qilish; b)tanlangan matnlar orqali o'quvchilarda yuksak insoniy fazilatlarni tarbiyalash; v)undalmalardan og'zaki va yozma nutqda to'g'ri foydalanish malakalarini shakllantirish.

Darsning usuli: savol-javob, muammoli o'qitish.

Darsning borishi: 1. Undalmalarni o'rganishning nutqdagi ahamiyatini tushuntirish. 2. O'quvchilarni undalmalar mamlakatiga sayoqatning shartlari bilan tanishtirish.

Undalmalar mamlakatiga borish uchun yo'lda o'quvchilarni juda ko'p to'siqlar kutayotganini, bu to'siqlarni enggan o'quvchilargina ana shu go'zal mamlakatga etib borishlari hamda shaharni tomosha qilish baxtiga muyassar bo'lishlari tushuntiriladi.

1-to'siq. a)Berdaqning "Bolam" she'rini ifodali o'qish;

b)she'riy parchadan murojaatni ifodalovchi so'zlarni aniqlash.

2-to'siq. Sinov darsligida berilgan savol va topshiriqlarga javob qaytarish talab etiladi.

3-to'siq. Berilgan qoraqalpoqcha matn o'qiladi va "Qaratpa so'zlap" aniqlanadi.

4-to'siq. O'quvchilar mustaqil ravishda undalmalar xususida umumlashma xulosa hosil qiladilar. Agar o'quvchilar undalmaga ta'rif berishda qiynalsalar, unda ta'rif o'qituvchining qisman yordami asosida beriladi.

5-to'siq. YUqoridagi she'riy parcha va misollarda undalmalar qanday tinish belgilari bilan ajratilishi o'quvchilar tomonidan aniqlanadi.

O'quvchilar kuzatish va tajribalarga asoslangan holda undalma gapning boshida kelsa, undan keyin vergul, gapning o'rtasida kelsa, ikki tomondan vergul, gapning oxirida kelsa, undan oldin vergul qo'yilishini bilib oladi.

6-to'siq. Berilgan murojaat so'zlar va so'z birikmalarini qo'llab, gaplar tuzish va qanday tinish belgilar qo'yilganligini izohlash talab etiladi (onajon, aziz muallimjonim, paxtakorlar, yo'lovchi, aziz bolalar).

7-to'siq. "Ikki o'rtoq suhbat" mavzusida undalmalardan foydalanib matn yaratish topshiriladi. (Suhbat uchun mavzular: "Bozorda", "Maktab kutubxonasida", "Kitob do'konida", "Avtobusda", "Sotuvchi va xaridor" v.q.).

8-to'siq. O'quvchining "Undalmalar" mamlakati darvozasi yonida turgan qariyaga salom berish payti aks ettirilgan rasm ular hukmiga qavola etiladi. (O'quvchilar undalmalardan foydalanib qariya bilan savol -javob qiladilar).

O'qituvchi o'quvchilarning "Undalmalar" mamlakatiga etib kelganliklari va bu mamlakatni tomosha qilish keyingi darsning maqsadi ekanligini e'lon qiladi.

Uyga vazifa sifatida "Undalmalar mamlakatining podshosi"ga maktub yo'llash topshiriladi.

O'quvchilar mamlakat podshosidan bu go'zal diyorni tomosha qilishga ruxsat so'raydilar.

Darsning oxirida har bir o'quvchining to'plagan ballari e'lon qilinadi va ular mukofotlanadi.

SHunday qilib, ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarda o'quvchilarni matn yaratishga o'rgatish DTS ning eng muhim talablaridan biri bo'lib, bu murakkab ish til hodisalari bilan chambarchas bog'liq qolda va nutq o'stirishga alohida dars soatlari ajratish orqali amalga oshiriladi.

O'quvchilar bajara olishi lozim bo'lgan bu zaruriy malaka va ko'nikmalar ko'proq amaliy xarakterdagi o'quv topshiriqlari orqali amalga oshiriladi. SHubhasiz, bu amaliy topshiriqlar o'qitishning o'quvchi faoliyatiga bogliq metodlaridan unumli foydalanish orqali qo'lga kiritiladi.

2-dars namunasi

Mavzu: “Ko‘cha qoidalar (harakat bajarmaslikka undashda –ma, mang, -magin, -manglar qo‘shimchasini qo‘llash)”

Dars nomi: ko‘cha harakati qoidalar – sog‘lig‘imiz garovi

Maqsad: O‘quvchilar:

“Ko‘cha qoidalar” mavzusi bilan bog‘liq yangi so‘z va so‘z birikmalari bilan tanishadilar;

nutqiy ko‘nikmalarini takomillashtirish sari yo‘naltiriladi, hamkorlikda ishlashga o‘rgatiladi;

sog‘lom raqobatda ishlashga intiladilar.

Dars jihozi: bo‘r, kartochkalar, jadval, taxta, darslik

Dars jarayoni:


1. Uyga vazifani so‘rash:

- Svetafor chiroqlari ranglari asosida guruhga bo‘lish, qizil chiroq, sariq chiroq yashil chiroq nomlari ostida 3 ta guruh hosil qilinadi: 1 minut

- Guruhlarga topshiriq: kartochkalardagi matnni o‘qing. Unda harakat nomi qo‘shimchasi va kerak, mumkin, zarur, lozim kabi so‘zlar qatnashganligiga e‘tibor bering hamda ularni daftaringizga yozing. Taqdimotga tayyorlaning. 2 minut

- Taqdimot: 3 minut

- Kitob so‘zini ta’riflash hamda klasterda ifodalash 3 minut



2. Yangi mavzu bayoni:

- Darslikdan 1-topshiriqni ifodali o'qish 0.5
minut
- Savol-javoblar 2
minut
- Jadval asosida grammatik ma'lumot berish 2
minut

3. Mustahkamlash

- 2-topshiriq yuzasidan musobaqa tashkil qilinadi. Harakatni bajarmaslikka undash mazmunidagi gaplar tuzib, taxtaga yozishlari kerak 3-minut

• Tahlil: xatolarni to'g'rilash, harakatni bajarmaslikka undashni ifodalovchi qo'shimchalar va so'zlarning tagiga chizish 2
minut

4. Kengaytirish: Uyga vazifani e'lon qilish, bajarilishini tushuntirish: 1-
mashq uyga vazifa qilib beriladi.
2 minut

5. "Tez yurar" o'yinini o'tkazish: o'quvchilardan boshlanish qismi berilgan
gaplarni davom ettirish so'raladi (vaqti 2 sekund) 10
minut

1. Yo'lda(o'ynash mumkin emas)
2. Yo'l harakati qoidalarini(buzma)
3. Qizil chiroq yonganda piyodalar yo'lini(kesib o'tish mumkin emas)
4. Kichkina bolalar yo'ldan o'tayotganda ularni(yolg'iz tashlab qo'ymang)
5. Avtobusga oldingi eshikdan(chiqmang)
6. Kattalarning oldini(kesib o'tmanglar)
7. Yo'l harakati qoidasini(buzmanglar)
8. Mashinalarning oldini(kesib o'tish mumkin emas)
9. Kattalar turganida sen(o'tirma)
10. Ko'chada(yugurish mumkin emas)
11. Avtobus o'rindiqlariga oyoq bilan(chiqmang)
12. Yashil chiroq yonganda.....(o'tish lozim)
13. Sariq chiroq yonganda ehtiyotlik chorasini(ko'rish zarur)
14. Yo'ldan o'tayorganda e'tiborsiz(bo'lma)
15. Avtobusda qattiq ovoz bilan(gapirmang)

16. Mashinaga hech qachon(osilma)
17. Avtobusga chiqqanda eshiklarga(suyanmang)
18. Avtobusda(odobsizlik qilmang)
19. Katta yo'llarni faqat yer osti yo'lidan yoki o'tish joyidan.....

(kesib o'tish lozim)

6. Baholash. O'quvchilarning uyga vazifani bajarishi, klaster tuzishdagi ishtiroki, "Tez yurar" o'yinidagi ishtiroki asosida baholanadi.
3 minut

- Muhokama savollari:

1. Bugungi darsimiz sizga yoqdimi?
2. Siz nimalarni o'rgandingiz?
3. Guruhlarda ishlash sizga yoqdimi?

3

minut

Izoh: o'qituvchi guruhlar ishini boshqarib, nazorat qilib borishi, qiyinchilik yuzaga kelganda ularga yo'l-yo'riq ko'rsatishi lozim.

Variant: sinfning sharoitidan kelib chiqqan holda uyga vazifaning klaster yaratish qismi bajarilmasa ham bo'ladi.

ILOVA

Kitobdan yaxshi do'st yo'q

"Qizil chiroq" guruhiga topshiriq: matnni o'qing. Unda harakat nomi qo'shimchasi va kerak, mumkin, zarur, lozim kabi so'zlar qatnashganligiga e'tibor berib hamda ularni daftaringizga yozing. Guruhingizdan bir o'quvchini topshiriq javobini berishga tanlang

Sizning fikrlash qobiliyatingizni shakllantirishda eng zarur vosita kitoblardir. Ular orqali jamiyatning buyuk iste'dod egalari bilan muloqotda bo'lishingiz mumkin. Agar chinakam mehr qo'ysangiz, kitoblar sizning eng yaqin do'stlaringizga aylanishi mumkin.

Kitobdan yaxshi do'st yo'q

“Sariq chiroq” guruhiga topshiriq: matnni o'qing. Unda harakat nomi qo'shimchasi va kerak, mumkin, zarur, lozim kabi so'zlar qatnashganligiga e'tibor bering hamda ularni daftaringizga yozing. Guruhingizdan bir o'quvchini topshiriq javobini berishga tanlang

O'tkir did, zamonaviy madaniyat egasi bo'lish katta ish. Keng dunyoqarash va tafakkur qobiliyati insoniyat uchun muhim ahamiyatga egadir. Siz bu xislatlarni faqat kitoblarda o'rganishingiz mumkin. Kitoblar hayot murakkabliklari va ziddiyatlarini o'rganishga, anglashga xizmat qiladi. Kitob bilan muomala sizni kelajakda odamlar bilan jiddiy muloqotga tayyorlashi mumkin. Asar qahramonlari yaqin do'stlaringizga aylanadi.

Kitobdan yaxshi do'st yo'q

“Yasil chiroq” guruhiga topshiriq: matnni o'qing. Unda harakat nomi qo'shimchasi va kerak, mumkin, zarur, lozim kabi so'zlar qatnashganligiga e'tibor bering hamda ularni daftaringizga yozing. Guruhingizdan bir o'quvchini topshiriq javobini berishga tanlang

Kitoblarni sevishingiz kerak. Chunki ular o'zligingizni anglashga, hayotni his qilishingizga yordam beradi. Kitoblarga sodiq bo'lishingiz lozim. Ular sizni hech qachon aldamaydi. Quvonganingizda hamroh, xafa bo'lganingizda yupanch bo'ladi.

XULOSA

1. O'zbekiston va Qoraqolpog'iston Respublikalarining "Davlat tili haqida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlarida "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da ta'lim boshqa tillarda, shu jumladan, qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tili (davlat tili)ni o'qitish uchun barcha shart-sharoitlar yaratish lozimligi uqtiriladi. CHunki o'zbek tili (davlat tili)ni o'qitish muhim siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va tarbiyaviy ahamiyatga molik masalalardan biri sanaladi.

2. "O'zbek tili" o'quv fanini o'qitishning muvaffaqiyati boshlang'ich sinflarda egallangan bilim, malaka va ko'nikmalarning qay darajada ekanligi bilan belgilanadi. Shu bois o'zbek tilidan boshlang'ich sinflarda egallangan bilimlar bilan yuqori sinflarda egallanayotgan bilimlar orasida uzviylikni ta'minlash o'qitishning muhim talabidir. Bu pastdan yuqoriga va yuqoridan pastga qarab bog'lanishlarni ta'minlash orqali qo'lga kiritiladi.

3. Modomiki, ta'lim boshqa tilida olib boriladigan maktablarda "O'zbek tili" o'quv fanini o'qitishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad O'zbekiston Respublikasining davlat tilida o'z fikrini og'zaki va yozma shakllarda bayon qilishga o'rgatish, bu tilda ish yuritish malakalarini shakllantirishdan iborat ekan, DTS talablari asosida tuzilgan dasturdagi har bir mavzuni o'rganishda bu maqsad voqelanishi shart.

4. Ta'lim boshqa tilida olib boriladigan maktablarda «O'zbek tili» o'quv fanini o'qitishda uzviylikka qat'i amal qilish dars samaradorligini oshirishda muhim omil sanaladi. SHuning uchun uzviylik o'qitishning eng yetakchi va asosiy printsiplaridan biri bo'lib hisoblanadi.

5. Darsda asosiy ishlovchi o'quvchining o'zidir. U o'quv topshiriqini qanday bajarish lozimligi xususida ko'rsatma olgach (ko'rsatma sifatida topshiriqning bajarilish namunasi, o'qituvchining sharhi, o'quvchilarning muqokamasi v.q. tanlanishi mumkin), uni bajarishga kirishadi va mustaqil ijodiy faoliyat ko'rsatadi. O'qituvchi esa bu o'rinda ta'lim jarayonining tashkilotchisi, raqbari sifatida namoyon bo'ladi. O'quv topshiriqi o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini boshqarib turuvchi, faoliyatlarni bir maqsadga yo'naltiruvchi kuch bo'lib sanaladi. O'quv

topshiriqi shunday bir zanjirki, u o'quvchi va o'qituvchi faoliyatlarini birlashtirib turadi.

8. Ta'lim boshqa tilida olib boriladigan maktablarda "O'zbek tili" o'quv fanini puxta o'zlashtirilganligi qoraqalpoq va o'zbek tillari orasidagi farqlarni bilish darajasi; o'quvchilarning o'zbekcha matnlarni tez, ravon, to'g'ri va ifodali o'qish malakasi; o'zgarlar fikri va matn mazmunini anglash malakasi; fikrni og'zaki va yozma ravishda bayon qilish malakasi, qoraqalpoqcha matnni o'zbek tiliga, o'zbekcha matnni qoraqalpoq tiliga o'girish darajasi; o'quvchilarning gap qurish malakalari; ish qog'ozlaridan foydalanish darajasi singari me'yorlar bilan belgilanadi.

TAVSIYALAR

O'quvchilarning til muxitini hisobga olgan holda o'quv topshiriqlarini tabaqalashtirish tavsiya etiladi. Qoraqalpog'istonning To'rtko'l, Beruniy, Ellikqal'a, Amudaryo, Xo'jayli, qo'nqiro't tumanlarida va Nukus shahrida "O'zbek tili" o'quv fanini o'qitadigan o'qituvchilar o'quvchilarning o'zbek tilini amaliy jihatdan bilishlarini nazarda tutib, murakkabroq topshiriqlarni tavsiya etishlari, bilingivizm sharoitida yashamaydigan o'quvchilarga esa soddaroq topshiriqlar berishlari maqsadga muvofiqdir.

2. O'zbek tili darslarida o'quvchilarda bilish vaziyatini hosil qilish, bilishga ehtiyojni tarbiyalash va shu yo'l bilan ularni mustaqil ishlash, izlanishga undash foydalidir.

3. Nukus davlat pedagogika instituti qoshida ta'lim boshqa tilda olib boriladigan maktablar uchun o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilari tayyorlash bo'limlarini ochish davr talabidir. Bu ta'lim boshqa tilida olib boriladigan maktablarda "O'zbek tili" o'quv fanidan dars beradigan o'qituvchilar muammosini hal qilgan bo'lar edi.

4. Respublika malaka oshirish instituti va joylarda tashkil etiladigan kurslarda "5-9-snflarda o'zbek tili ta'limining mazmuni", "O'zbek tili" o'quv fanini o'qitishda uzviylik", "O'zbek tili darslari samaradorligini oshirish omillari", "O'quvchilarining real o'quv imkoniyati va "O'zbek tili" o'quv fanini o'qitish muammolari" singari

mavzularda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar tashkil etish ham bizning nazarimizda maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. I.A.Karimov Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat", 2011 y
2. I.A.Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida T., "O'zbekiston", 2011 y
3. O'zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida» gi Qonuni, Toshkent. «O'zbekiston», 1989 y.
4. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent, «O'zbekiston», 2003 y.
5. Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi. Nukus, «Qoraqalpog'iston», 1996 y.
6. Umumta'lim maktablari dasturi. Ta'lim o'zbek tilida olib borilmaydigan maktablar 2-11 sinflari uchun. Toshkent «O'quvchi», 1996. Tuzuvchilar: R.Tolipova, A.Rafiev va b.
7. Umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturi. Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning 2-9-sinflari uchun. Tuzuvchilar: A.G'ulomov, M.Bo'ronov, A.Madaminov va b. «Ustoz» 2001 yil, 38-44-sonlar
8. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi// Ta'lim taraqqiyoti O'z Res XTV «Axborotnoma»si 1-maxsus son. «SHarq», 1999, 46-54 bet.
9. Ta'lim o'zbek tilida olib borilmaydigan sinf(guruh)larda o'zbek tili va adabiyotini o'qitish kontseptsiyasi. Toshkent, 1994 y.
10. Nurridinov D. 5-7-sinflar uchun «O'zbek tili» fanidan dastur va MSNI o'tkazish yuzasidan tavsiyalar. Toshkent, 2006 y. «O'zbekiston milliy kutubxonasi» nashriyoti
11. Abdullaev Y. 5-7-sinflar ona tili dasturi va darsliklarida uzviylik-uzliksizlikning ta'minlanishi// «Uzluksiz ta'lim» jurnali, 2002, 2-son

12. Bo'ronov M. O'zbek tilida o'qitishning ba'zi masalalari (Ta'lim o'zbek tilida olib borilmaydigan maktablarning 2-9-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma) Nukus, «Bilim», 1999 y.
13. Bo'ronov M. Ta'lim jarayoniga zamona talablari// «Dars kuzatish-mas'uliyatli ish» Nukus, «Bilim», 1995 y.
14. Bo'ronova SH. Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning 5-sinflarida o'zbek tilini o'qitishning ilmiy-metodik asoslari. p.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyaning avtoreferati, Toshkent, 2002 y.
15. Bo'ranov M., Ibrahimova Z. Til o'rgatishning lisoniy-didaktik omillari. Nukus, «Bilim», 2001 y.
16. Ziyodova T. va b. «O'qituvchi kitobi» (5-sinf ona tili darsligi bo'yicha o'quv-metodik qo'llanma), Toshkent, «Xalq merosi», 2002 y.
17. Muhiddinov A.G'. O'quv jarayonida nutq faoliyati. Toshkent, O'qituvchi, 1993 y.
18. Tolipova R. va b. O'zbek tili. Ta'dim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 6-sinfi uchun darslik. Toshkent, «SHarq», 1998 y.
19. Tolipova R. va b. O'zbek tili. Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. 2-nashr. Toshkent «SHarq», 2005 y.
20. Turusunov U va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, «O'zbekiston», 1992 y.
21. Qo'chqortoev I., Rafiev A. Kundalik muloqot so'zlashgichi. Toshkent, «O'zbekiston», 1994 y.
22. G'ulomov A., Bo'ronov M., Ibrahimova Z. O'zbek tili. Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. 2-nashr, Nukus «Bilim», 2003 yil.

MUNDARIJA

KIRISH.....

O'zbek tili o'qitishning huquqiy-dasturiy asoslari

1. Davlat tilini o'qitish tarixidan ma'lumot

I BOB TURKIYZABON SINFLARDA O'ZBEK TILINI O'QITISHDA E'TIBORTALAB MASALALAR

1. O'zbek tili-turkiy tillarning biri
2. 5-sinf yangi dasturining material hajmi va didaktik talablari

II BOB TA'LIM DOSHQA TILIDA OLIB BORILADIGAN MAKTABLARDA O'ZBEK TILINI SAMARALI O'QITISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

1. O'zbek tilini o'qitish usullari va tamoyillari
2. «O'zbek tili» o'quv fanining samaradorligini ta'minlovchi omillar

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR